



ALISHER NAVOIY

G'urbatda g'arib
shodumon bo'lmas emish



G'URBATDA G'ARIB
SHODUMON BO'LMAS EMISH

ALISHER NAVOIY



Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

929953


YANGI ASR AYLODI
TOSHKENT
2019

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50°)1

N - 14

Navoiy, Alisher

G'urbatda g'arib shodumon bo'lmas emish: g'azallar, ruboilyar, tuyuqlar, qit'alar, fardlar / Alisher Navoiy. – Toshkent: Yangi asr avlodni, 2019. – 160 b.

ISBN 978-9943-20-385-3

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ulug' shoir, mutafakkir, jahon adabiyotining yirik vakili Alisher Navoiy shaxsi va ijodi alohida o'rinn tutadi. Shoirning o'lmas ijodi asrlar osha millionlab kitobxonlar qalbini zabit etib kelmoqda. Yaxshilik, odob-axloq, Vatanni sevish, muhabbat kabi mavzularda eng go'zal nazm namunalarini yaratgan bu ijodkor insoniyatga mislsiz ma'naviy boylik qoldirdi. Shu sabab, mana, necha asrdirkni, uning ijodi yuksak qadrlanadi va o'rganiladi.

Biz qadrli mакtab o'quvchilar uchun Alisher Navoiy ijodining eng sara namunalari jamlangan mazkur kitobni nashrga tayyorladikki, bundan murodimiz ularni Navoiy shaxsi, Navoiy ijodi, Navoiy dahosi bilan yanada yaqinroq bo'lishiga undashdir.

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50°)1

ISBN 978-9943-20-385-3

© Alisher Navoiy, «G'urbatda g'arib shodumon bo'lmas emish». «Yangi asr avlodni», 2019-yil.

SHARQ ADABIYOTINING NOYOB SHOIRI

Alisher Navoiy (asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) – buyuk o‘zbek shoiri, o‘zbek adabiy tilining asoschisi, ulug‘ mutafakkir, davlat arbobi. Otasi G‘iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo‘lgan. Alisher Navoiyning bolaligidan temuriyzodalar, xususan, bo‘lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she’rlarni o‘qib, yod ola boshlagan. O‘zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447-yilda mamlakat podshohi Shohrux vafotidan so‘ng boshlangan urush-janjallar ko‘pchilikni, xususan, Alisher Navoiylar oilasini ham Iroqqa ko‘chishga majbur etadi (1449). Taf shahrida Alisher mashhur «Zafarnoma» tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv yosh Alisherda yorqin taassurot qoldiradi. G‘iyosiddin Bahodir oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o‘tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G‘iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinlaydi. Alisher Navoiy Hirotda qolib o‘qishni davom ettiradi. Alisher Navoiy she’riyatga g‘oyat qiziqadi, Sharq adabiyotini qunt bilan o‘rganadi. Oila muhitni bolaligidayoq unda adabiyotga zo‘r havas tug‘dirgan edi. Tog‘alari Mirsaid Kobuliy, Muhammad Ali G‘aribiy yetuk shoir edilar. Shu boisdan ularning uyida shoirlar tez-tez to‘planishib, mushoira uyuştirishar, adabiyot

va san'at haqida suhbatlashar edilar. Alisher Navoiy 10 – 12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste'dodidan hayratlangan mavlono Lutfiy, uning:

*Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.*

matlali g'azalini tinglab: «Agar tuyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim...» degan. Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy (Foniy taxallusi bilan) tillarida yozgan.

Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan, Alisher Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallagan yillarda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarda bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin havuz qurgan yoki ta'mirlattirgan. Ular orasida Hirotdagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoziya» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljalangan «Dorul-huffoz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorul-huffoz» xayriya binosi

va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor. Bu davrda Hirotda adabiy hayot jo'sh urgan. Hirotda, umuman, Xuroson mulkida ma'naviy hayotning baquvvat ustunlaridan Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtasidagi ijodiy hamkorlik – ustoz-shogirdlik ko'p masalalar da hamfikrlilikka olib keldi. Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan «Hiloliya» qasidasi Sultan Husayn Boyqaroga bag'ishlangan bo'lsa, forsiy tilidagi birinchi yirik asari «Tuhfat ul-afkor» (1476) qasidasi Jomiyga bag'ishlangan edi. 1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni – «Badeo ul-bidoya» («Badiylik ibtidosi»)ni tuzdi. Undan keyingi davrda yozilgan o'zbekcha she'rlari asosida 1480-yillarning oxirida «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar») devonini tuzdi.

1488-yil Sayyid Hasan Ardasher, 1492-yil Jomiy, 1493-yil olim va shoir Pahlavon Muhammad birin-ke tin hayotdan ko'z yumdilar. Navoiy o'zi uchun qadrdon bo'lган bu insonlar xotirasini abadiylashtirish, ularga o'z hurmatini izhor etish uchun «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat»), «Holoti Pahlavon Muhammad» nomli risolalarini yozdi. Astrobodda yoza boshlagan «Tarixi muluki Ajam» («Ajam podshohlari tarixi») asarini tugalladi (1489). 1490-yil u o'ziga zamondosh shoirlar haqida Jomiyning «Bahoriston», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuar» asarlari shaklida «Majolis un-nafois» («Nafislar majmuasi») tazkirasini tuzishga kirishib, 1492-yilda tugalladi. Shu vaqtning o'zida Alisher Navoiy o'zbek tilida she'riyat nazariyasi, aniqrog'i, aruz vazni qoidalari haqida «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'Ichovi») ilmiy qo'llanmasini yaratdi. 1494-yilda turkiy tildagi maktublarini to'plab «Munshaot» («Maktublar») majmuasini tuzdi.

1495-yil Jomiyning «Nafahot ul-uns» asarini «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») nomi bilan tarjima qilib, uni qayta ishlab, turkiy mashoyixlar haqidagi yangi ma'lumotlar bilan boyitdi. Alisher Navoiy 1491 – 1492-yiliardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she'rlaridan yangi, yig'ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498 – 1499-yilda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiyligi nomi «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi») bo'lib, 4 qismdan iborat bo'lganligi uchun «Chor devon» deb ham atalgani. Taxminan shu yillarda Alisher Navoiy forsiy she'rlaridan tashkil topgan «Devoni Foniy» («Foniy devoni»)ni, forsiy tildagi 2 qasidalar majmualarini tuzib, forsiy she'riyat taraqqiyotiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Alisher Navoiyning she'riy dahosi 15-asr oxirlariga kelib yana jo'sh urdi. U 2 yil mobaynida 2 ta yirik asar – «Lison ut-tayr» («Qushlar tili») dostonini va «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ilki til muhokamasi») nomli ilmiy asarini yaratdi. Alisher Navoiyning so'nggi buyuk asarlardan yana biri nasriy pandnoma yo'sinida yozilgan «Mahbub ul-qulub» («Qalblarning sevgani»)dir. U Sharq adabiyyoti tarixida Shayx Sa'diyning «Guliston», Kaykovusning «Qobusnama», Nizomiy Aruzi Samarcandiyning «Chormaqola» kabi asarlari qatorida turadi. Bu asarida Alisher Navoiy o'zining hayot yo'lini, boshidan kechirgan turmush mashaqqatlarini yorqin tasvirlab bergan.

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan «Xazoyin ul-maoniy» devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismi-

ga «G‘aroyib us-sig‘ar» («Bolalik g‘aroyibotlari»), ikkinchi qismiga «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirotlari»), uchinchi qismiga «Badoe ul-vasat» («O‘rta yosh badialari») va nihoyat, to‘rtinchi qismiga «Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydalari») degan nomlar berildi. «Xazoyin ul-maoniy» inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq minglarcha she‘r va o‘nlarcha she‘r turlarini o‘z ichiga olgan majmua bo‘lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Ulug‘ shoir ijodining shoh asari «Xamsa» 5 dostondan iborat. Bular «Hayrat ul-abror» («Yaxshilar hayrati»), «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ayi sayyor» («Yetti sayyora»), «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») dostonlaridir. Fors adabiyotidagi xamsachilikka javob sifatida o‘zbek tilida birinchi marotaba yaratilgan Alisher Navoiy «Xamsa»si bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot etdi. 52 ming misradan iborat bu beshlik 15-asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o‘ziga xos qomusi edi.

G‘AZALLAR

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdimu chektim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘a-yu ul sho‘xi badxo‘ kelmadi.

Orazidin oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro‘zgorimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormukim, oni ko‘rganda kulgu kelmadi.

Ko‘zlariningdin necha su kelgay deb o‘ltur mang meni
Kim, bori qon erdi kelgan bu kecha, su kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas yo‘qsa kim qo‘ydi qadam,
Yo‘lg‘a kim avval qadam ma’shuqi o‘tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunikim boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

* * *

Ey, yuzung gulbargiga oshuftavu hayron sabo,
Telbalardek gulshani ko'yungda sargardon sabo.

Qo'pmog'i mumkin emastur, balki tebranmakligi,
Topmasa jonbaxsh la'ling nuktasidin jon sabo.

Sunbuli zulfin agar oshufta qilmaydur, nedur
Kim, shabistong'a esar har dam abirafshon sabo.

Pora-pora jism aro ohim netib qolg'ay nihon,
Bo'lmos' imkon yo'q xas-u xoshok aro pinhon sabo.

Yordin keldi sabo kech kelmakin aylarga fosh,
Ko'nglum ichra tez qildi shu'layi hijron sabo.

Notavonlar ohi ul gul ko'yida har subhidam,
Uyladurkim, gulsiton ichra esar har yon sabo.

Subh chun esti sabo, ichkil qadahkim, bo'lmos'ung
Sen-u ko'p esturgusi bu bog' aro davron sabo.

Lolaruhlar ahdining mahkamligi mumkin emas,
Sobit o'lmoq lahzaye bir yerda ne imkon sabo.

Tong emas, salsa Navoiy ohi ko'yungda g'irev,
Chun guliston sayrida zohir qilur afg'on sabo.

* * *

La'ling ul o'tki, ko'ngul mijmar anga,
Yo ko'ngul durj-u labing gavhar anga.

G'amidin ayr-u emonkim, tutmish
Uns bu xotiri g'amparvar anga.

Zordur telba ko'ngulkim, ko'runur
Har dam ul hur pariy paykar anga.

Qon ko'nguldin ne ajab turmasakim,
Kirpiking har dam urar nishtar anga.

Hajr o'tidin tanim ul nav kuyar
Kim, erur ostida kul bistar anga.

Hajridin holim erur andoqkim,
Bo'limg'ay ko'rmagucha bovar anga.

Dahr xush gulshan erur, naylaykim,
Yo'q vafo gullaridin zevdar anga.

Jon olurda g'ami hajr, ey soqiy,
Choradur boda bila sog'ar anga.

Yuzi vasfig'a Navoiy tushmish,
Bargi guldin yasangiz daftar anga.

* * *

O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakkiz yoshindadur.

Desa bo'lg'aykim, yana ham o'n sakkiz yil husni bor,
O'n sakkiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.

O'n sakkiz yil dema, yuz sakson yil o'lsa, uldurur
Husn shohi, ul balolarkim ko'z-u qoshindadur.

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,
Barchasi ezid taolo sun naqqoshindadur.

Tan anga siym-u ichinda tosh muzmar ko'nglidin,
Aqlg'a yuz hayrat ul oyning ich-u toshindadur.

May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish
Masih, Bul-ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

To Navoiy to'kti ul oy furqatidin bahri ashk,
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

* * *

Ey, sanga qomati diljo' ra'no,
Tavr-u tarzing dog'i asru ra'no.

Paykar-u qaddinga volihmenkim,
Ul biri nozuk erur, bu ra'no.

Ul pari uchqusi ra'noliqdin,
Odami muncha bo'lurmu ra'no.

Qomating nozuk-u to'bi nozuk,
Sarv ra'novu tarong'u ra'no.

Ey musulmonlar, o'larmenkim, erur
Asru ul sarvi sumanbo' ra'no.

Bevafodur bu chaman, ko'p bo'lmang,
Ey, sapidor ila nojo' ra'no.

Bil, Navoiyki, g'izolingcha emas,
Chin gulistonida ohu ra'no.

Qilur ishq yuz ming balo oshkoro,
Vale borin aylar mango oshkoro.

Balo, ko'rki, ag'yorg'a ko'rguzur yor
Nihon mehr-u bizga jafo oshkoro.

Dedim: ishqni oshkor etmay, ammo
Yoshurdum men, etti qazo oshkoro.

Netib men nihon asrayin, ayting oxir,
Tilar bo'lsa dardim xudo oshkoro.

Jununum bu bo'lsa, g'amim bo'lg'usidur
Nechakim yoshursam, yano oshkoro.

Qilur yuz jafo oshkoravu bir ham
Vafo qilmas ul bevafo oshkoro.

Yedim tiyr boroni hajringda ming zaxm
Ki, bo'ldi ne o'q-u ne yo oshkoro.

Necha boda maxfiy, chu fosh o'ldi ishqim,
Tut emdi qadah, soqiyo, oshkoro.

Ki, to mast o'lub ishq ramzida, tortay
Navoiy kibi bir navo oshkoro.

Bo'lur gahiki g'amim shu'lasin ayon qilsang,
Shararni shu'la uza nuqtalar gumon qilsang.

Ko'zum yorug' tilar ersang, yosurma xolingni
Ki, ko'r o'lur ko'z, agar nuqtasin nihon qilsang.

Xadangi ohim ila, ey falak, xato qilmay,
Qorong'u tunda ne kavkabnikim nishon qilsang.

Iloj qilmaki, botroq kuyarga ansab erur,
Tanim chinin necha hajringda notavon qilsang.

Ko'z ichra halqa urubtur sirishk o'lur, ey ishq,
Ko'zum qorasini ul yoshlar ichra xon qilsang.

Chu javrung o'rtadi parvonani, ne sud, ey sham,
Kesib sochingni, azosi uchun fig'on qilsang?

Ko'zungni ko'ngluma andoqli mezbon qilding,
Yuzungni ko'zuma ham kosh mehmon qilsang.

Bu bog' gullari bargida topmas, ey bulbul,
Dimog'i mehr isi yuz qatla imtihon qilsang.

Navoiy, aylagasen vasi kishvarini vatan,
Fano yo'llig'a kirib, tarki xonumon qilsang.

* * *

Borur ul mast yana noz aylab,
Xalq ila arbada og'oz aylab.

Qatl uchun g'amzani jallod qilib,
Zulm uchun ko'zni fusunsoz aylab.

Har qachonkim turubon boda ichib,
Jur'asin xonabarandoz aylab.

Javr uchun ahli vafokim ayirib,
Barchasidin meni mumtoz aylab.

Turfaroq bukim, aning keynicha-o'q,
Jon-u ko'nglum qushi parvoz aylab.

Ne gunah ko'zga nazardinki, qazo
To ochib ani nazarboz aylab.

Garchi holimni Navoiy yoshurub,
Ishq anga ashkni g'ammoz aylab.

* * *

Bog'ingga yetmasun oshub xazondin, yo rab,
Gul bila sarvunga oseb zamondin, yo rab.

Oldi jon la'lingu elga labi jon berguchilar
Barcha qul bo'lsun aning ollida jordin, yo rab.

Dardini baski nihon tuttum – o'larmen pinhon,
Voqif etgil ani bu dardi nihondin, yo rab.

Yomon ahvolima ko'z solmadi ul oy yaxshi,
Yaxshi ogoh qil ani bu yomondin, yo rab.

Yuz jahon zulm jahon ahli manga qildi, meni
Forig' et ahdi jahon birla jahondin, yo rab.

Beribon ko'ngluma jamiyati xotir qutqar,
Har nekim andin erur tafriqa, andin, yo rab.

Ko'yida hajr fig'oninki Navoiy tortar,
Ham meni, ham ani qutqar bu fig'ondin, yo rab.

Jamolin ayla ulus ko'zidin nihon, yo rab,
Nihon o'tumni aning ko'nglig'a ayon, yo rab.

Ayog'i chunki yetar ostoni tufrog'ig'a,
Boshimni aylagil ul xoki oston, yo rab.

Agarchi emin emon bir zamon jafosidin,
Chekardin ani manga bermagil amon, yo rab.

Demonki, lutfini, javrini dog'i mendin o'gun
Birov xayolig'a o'tkarma, nogahon, yo rab.

Zamon-zamon chekibon ishq o'ti shu'lasini,
Yorut ko'ngulni ul o't birla har zamon, yo rab.

Agarchi aylamasang yaxshi, yaxshi ko'rguzgil
Meni anga nechakim bor esam yomon, yo rab.

Navoiy ohini yetkur anga, vale qo'yma
Aning jamolida bu duddin nishon, yo rab.

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

929953

Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

Qut bir bodom-u yerim go'shayi mehrob edi,
G'orati din etti nogah bir baloliq ko'z-u qosh.

Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,
Subhnung bot-bot dami andog'ki aylar mehr fosh.

Bo'saye qilmas muruvvat, asr-u qattiqdur labing
Desam, og'zi ichra aytur: la'l ham bor navyi tosh.

Novaking ko'nglumga kirkach jon talashmoq bu ekin
Kim qilur paykonini ko'nglum bila jonio talosh.

Umri jovid istasang fard o'lki, bo'ston Xizridur
Sarvkim, da'b ayladi ozodaliq birla maosh.

Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,
Gar budur mehrob, bir-bir qo'yg'usidur barcha bosh.

* * *

Ko'rgali husnungni zor-u mubtalo bo'ldum sanga,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak mubtalo bo'ldum sanga.

Men qachon dedim, vafo qilg'il manga, zulm aylading,
Sen qachon deding, fido bo'lg'il fido, bo'ldum sanga.

Qay pari paykarga dersen telba bo'ldung bu sifat,
Ey pari paykar, ne qilsang qil, sanga, bo'ldum, sanga.

Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

Ul pariy ishqida yo'qkim meni devona kuyub,
Yasag'anlar ham o'zin, oqil-u farzona kuyub.

Ishq o'tidin kishi bir qatla kuyub bo'lsa xalos,
Chun yana qaytibon ul shu'la sari, yona kuyub.

Ishq ko'ksumga chu o't soldi, ko'ngul ham kuydi,
Chug'z ham o'rtanib, ul o'tqaki vayrona kuyub.

Yuzidin o'rtanibon talpinur ollida ko'ngul,
Sham ayog'ida urung'an kibi, parvona kuyub.

Eyki so'rdungki, qachon kuydi buzug' ko'nglung uyi,
Orazing barqi chaqilg'onda, bu koshona kuyub.

O'rtanib aql-u ko'ngul, ishq chu aylab tug'yon,
Andakim barq tushub, oqil-u farzona kuyub.

Chun Navoiy chekib ul oy g'amidin shu'layi oh,
Oshno kul bo'lub ul o'tdin-u begona kuyub.

* * *

Bahor elga aysh-u manga iztirob,
Kulub holima barq-u yig'lab sahob.

Solib tufrog' ustida bir gul g'ami,
Orig'liq sudek jismima pech-u tob.

Ketib g'unchadek dag'i nargis kebi,
Og'iz birla ko'zdin manga xo'rdu xob.

Esib xalq sari nasimi visol,
Menga hajr o'tidin yetib iltihob.

Guli vasl agar dahr bog'ida yo'q,
Yetar qatlima hajr xori azob.

Ko'han dayr bedod-u zulmi bila,
Darig'oki, o'tdi zamoni shabob.

Chu yo'q vasl, bexudlug' ovlodurur,
Qadah davrig'a ayla, soqiyl, shitob.

Ki, o'zni qilay necha sog'ar chekib,
Bu dayri xarob ichra masti xarob.

Navoiy, desangkim zamone tinay,
Zamon ahlidin aylagil ijtinob.

Qaro ko'zum, kel-u mardumlug' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la,
Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, ey charx,
Xamir etib, yana ul tog'da ko'hkan qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni,
Sochingni boshtin ayog' chin ila shikan qilg'il.

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone,
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub o'lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg'il.

Navoiy anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman qilg'il.

Base dard berding-u davo qilmading.
G'am-u ranjim anglab, shifo qilmading.

Base va'da berding qilay deb vafo,
Hamin va'da qilding, vafo qilmading.

Gunahsizki, hajr o'qi otting menga,
Xato erdi, ammo xato qilmading.

Visolingda ko'nglumni tindurmading,
Firoqingda to mutbalo qilmading.

Ko'ngul birla jonni ham etting asir,
Bu shiddatni yolg'uz mango qilmading.

Yaqin istamak dast agar bermadi
Yiroqtin dog'i marhabo qilmading.

Navo birla garchi hech kimsani
Navoiy kibi benavo qilmading.

* * *

Yo'lida kosh meni pora-pora qilg'aylar,
Ki xalq holima bir-bir nazora qilg'aylar.

Bu holatimni ko'rub bori ishq asirlari,
Vafosiz elni sevardin kanora qilg'aylar.

Vasiyatim buki, ko'nglumni ko'rgach-o'q ahbob,
Tutub yuzini hamul lahza qora qilg'aylar.

Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu baloga ne chora qilg'aylar?

Tamug'ni ravza sog'ing'aylar ahli hashr ul kun,
Ki telba ko'nglum o'tin oshkora qilg'aylar.

May ichki, anglamag'aylar bu dayrdin ramze,
Gar ahli zuhd yuz yil istixora qilg'aylar.

Sabo, degilki, Navoiyg'a tortsunlar xat,
Alarki ahli vafoni shumora qilg'aylar.

Chiqtı jon, qoshıma jonon kirgach,
Kim halok o'lg'on ekin jon kirgach?

Keluringga yasadim ko'nglum uyin,
Yasalur kulba, chu mehmon kirgach.

O'zni asrarmen-u ko'nglum chekar oh,
Nogah ul sarvi xiromon kirgach.

Ohdin shu'la yetishkandek erur,
O'qidin ko'ngluma paykon kirgach.

Yuz junun shu'lasi aylar paydo,
Ul pari ko'ngluma pinhon kirgach.

Dahr uyi ichra iqomat tilama,
Chiqmamoq anda ne imkon, kirgach.

Borma ko'yiga, Navoiyki, qochar
Yor, sen telbayi uryon kirgach.

Ey jamoling qoshida lol xirad,
Ishqing oshubig'a pomol xirad.

Andakim sen qilibon jilvayi husn,
Hush o'luh zoyil-u badhol xirad.

Ishq Masih ayladi, garchi bor edi
Ilm ashkolig'a hallol xirad.

Chiqmadi tuz yo'lidin ishq ahli,
Nechakim ayladi izlol xirad.

Ishqqa aql zalil o'lmasa, ko'r,
Ne qolur, chunki ketar dol xirad.

Ich mayi ishq-u Navoiy, mast o'l,
Kelturur bo'lsa ko'p ashkol xirad.

* * *

Orazing ko'zgusimu ter kasratidin sudadur
Yoxud ul oraz suyining aksimu ko'zgudadur?

Dema ayni nozdin ul ko'z ochilmaydurki, bor
Kofirekim mastlig' ifrotidin uyqudadur.

Topmog'im o'zni mahol o'l mish firoqing shomikim,
Tab arodur xasta jism-u tob ul gesudadur.

Sen otarsen novak-u ko'ksum shikofidin ko'ngul
Ko'rgali kelmish, xato qilmaki, xush qobudadur.

Sajda qilmoq ne tafovut Ka'ba yoxud butqakim,
Qoshi mehrobi, qayon qilsam sujud, o'trudadur.

O'Imagimdin zulfunga go'yo parishonlig' yetib,
Motam ahlidek quyi solib boshin qayg'udadur.

Nuh umri-yu Sulaymon mulkiga yo'qtur baqo,
Ich, Navoiy, bodakim olam g'ami behudadur.

* * *

G‘aming o‘qiki, ko‘ngullar uyin nishona qilur,
Mening chu xokiy tanim ichra yetti, xona qilur.

Labing bahonasiz el qonini to‘kar har dam,
Manga chu yetti ish, albatta, bir bahona qilur.

Ko‘ngul berurda fusunlug‘ ko‘ziga bilmas edim,
Ki el ichinda meni oqibat fasona qilur.

Ko‘ngulda javhari paykoniniki yig‘mish jon,
Ajab emaski, bu vayronani xazona qilur.

Desaki, mehrigiyohin ko‘kartayin gardun,
Zamona ahli vafo ko‘z yoshini dona qilur.

Halok domi yoyar subhvez qushilar uchun
Sahar yeliki, chaman sunbulini shona qilur.

Nasib bulbul uchun xorij g‘amdurur, ul ham
Navoiy nag‘masi birla magar tarona qilur?

* * *

Shahsuvorim har qachon javlon qilur,
Mahv o'lub, bilmon o'zumni, haq bilur.

Anga har ko'zkin tushar, kirpiklari
Xasta ko'nglumga tikandek sanchilur.

Ochilur ko'nglum samandi sayridin,
G'uncha yanglig'kim sabodin ochilur.

Ayrilur go'yo quyoshdin bir shihob,
Oti na'lidin har o'tkim ayrilur.

Oh tortarda magar jon pech urar,
O'q otarda har qachonkim qayrilur.

Tavsani gardunni markab qilmakim,
Yer bila rokibni oxir teng qilur.

Tez etar tig'ing Navoiy ishqini,
Garchi o't o'char, agar suv sochilur.

Xating ichra labi xandon ko'rinur,
Xizr ila chashmayi hayvon ko'rinur,

Ishq dashti aro g'amzang o'qidin
Ko'z yetar yergacha paykon ko'rinur,

Bil, junun bodiyasida menmen,
Qayda bir telbayi uryon ko'rinur.

Lola butg'a kebi qon yoshimdin,
Tog'-u vodiy bori yakson ko'rinur.

Garchi ishq ichra, base, mushkil bor,
Vasl ummididin oson ko'rinur.

Ko'zum o'ldi yana go'yo oshiq,
Baski bir chehrag'a hayron ko'rinur.

Lofi zuhd urma, Navoiy, har dam
Ki, aning aksari yolg'on ko'rinur.

Bog' atri chu nasimi gul-u shamdod berur,
Yorning gul yuz-u shamshod qadin yod berur.

Borsa Parvez bori hashmati yelga ne ajab,
Joni Shirinni chekib ohki, Farhod berur.

Jilva qildi qadding-u nargis-u gul bo'ldi tonuq,
Anga qulluq xatikim savsani ozod berur.

Ko'magan bo'lsa yuzung mus'hafini tifli chaman,
Nega gul daftari avroqini barbod berur.

Ey ajal, sun bo'yun g'amzagakim, bosh chekmas
Har ne ta'limki shogirdg'a ustod berur.

Qilma bedod burunroqki keturgaylar yuz,
Angakim, zulmkash el cheksa fig'on dod berur.

Tig'i devona Navoiyni ne g'am qatl etsa,
Chun anga jon yana ul huri parizod berur.

* * *

Ohim g‘amingda gunbadi axzarni kuydurur,
Har uchquni falakda bir axtarni kuydurur.

Otashkada o‘tida samandar topar hayot,
Ko‘nglum o‘ti valek samandarni kuydurur.

To qomatingg‘a ne uchun o‘xshatti bog‘bon,
Ohim samumi sarv-u sanovbarni kuydurur.

Bir o‘tdurur tanimdakim, aning harorati
Ko‘nglakni kul qilur, dog‘i bistarni kuydurur.

Derlarki, og‘iz o‘t desa kuymas, vale bu oh
Chun sabt bo‘lsa, xoma-yu daftarni kuydurur.

La‘ling xayoli ko‘ngluma o‘t soldi, vah, ko‘rung,
Ne tez erur bu bodaki, sog‘arni kuydurur.

Soqiy, g‘am ichra o‘ldi Navoiy – piyola tut
Kim, g‘ussalardin ushbu o‘t aksarni kuydurur.

Gar budur qomati ra'no bila zebo oraz,
Sarv bo'y chekmas-u ochmas guli ra'no oraz.

Orazin sabzag'a har gulshan aro surtarmen,
Sanga to sabzayi tar ayladi paydo oraz.

Toqatim yo'q ikki o't birla meni o'rtarga,
Otashin la'l manga ayla ayon yo oraz.

Parda yopqilki, xating ayladi behol meni,
Men xud o'ldum qila olmasqa tamosho oraz.

Orazimni bir ayoq birla qizort, ey soqiy,
Necha surtay ayog'ingg'a meni rasvo oraz?!

Oyg'a gulguna magar surtti mashshotayi charx
Yo sanga maydin erur gul kebi hamro oraz.

Ey Navoiy, tilasang davlati boqiy topmoq,
Olmag'in dayri fano yo'lidin aslo oraz.

* * *

O'ting, ishrat ahliki, biz zorlarbiz,
Tuman ming balog'a giriftorlarbiz.

Ko'ngulni qilib yuz yara ishq o'qi,
Tarahhum qilingkim, dilafgorlarbiz.

Tilarbiz shifo bir Masiho nafasdin
Ki, bu ko'hna dayr ichra bemorlarbiz.

Yorutqoy debon ko'zni bir sa'd kavkab,
Har aqshom tong otquncha bedorlarbiz.

Sabukruh soqiy, fano jomi tutqil
Ki, o'zluk yukidin garonborlarbiz.

Muyassar esa do'stning vasli bir dam,
Berib ikki olam, xaridorlarbiz.

Navoiy kebi ichgali ishq jomin
Xarobot ko'yida xummorlarbiz.

* * *

Yor etti mehr tarki-yu men yormen hanuz,
Ishqi salosilig'a giriftormen hanuz.

Hajrim tuniki yilcha edi bu umid ila
Kim kelgasen, yo'lung uza bedormen hanuz.

Kelgach, ko'ngul yarasi yovushti o'ngalg'ali,
Bir lahza bormag'ilki, dilfigormen hanuz.

Bozori husn davrida har necha xayli xat,
Qildi g'ul-u, valek xaridormen hanuz.

Ey shayxi soda, zuhduma har kun inonmakim,
Tunlar muqimi kulbayi xammormen hanuz.

Men o'lgali ko'p erdi-yu itlar fig'onidin
Qilding gumonki, ko'yung aro bormen hanuz.

Aylab falakni jom sumurdum, Navoiyo,
Qo'sh tut bu bazm ichindaki, hushyormen hanuz.

Manga bor ul sanami ra'no xush,
Ko'runur o'zga sanamlar noxush.

Yolg'uz ani sevaramkim, manga bor
Ul xush, o'zga kishi yo'q aslo xush.

Xalq noxushlig'idin qayda g'amim,
Bor esa ul sanami zebo xush.

Yuzungga yuz qo'yayin xat orakim,
Sabzada keldi guli ra'no xush.

Kecha hijronida may tortar edim,
Kirdi gul gulruxi mah siymo xush.

Menda yuz biymki, tutqach olibon,
Chekti ul sho'xi qadahpaymo xush.

Dayr aro o'zni, Navoiy, xush tut,
Chun kelibtur sanga ul tarso xush.

Ey, mening jonim olib yaxshilig‘ing,
Beribon jon yana yaxshi qiligid‘ing.

Qahr ila bodaki, tuttung o‘ldum,
Zahrdek o‘lturur elni achig‘ing.

Husndin mehr g‘arazdur, ey ishq,
Bu masaldur: silih‘ingdin ilig‘ing.

Asradim seni ko‘z ichra, ey yosh,
Qonima erdi tanug‘lug‘ osig‘ing.

Mast ul kofiri bebok kelur,
Aql-u din ahli, o‘zunguzni yig‘ing.

G‘ayr gardi borur ul pok sari,
Qani, ey ko‘z, bu mahalda arig‘ing.

Ey Navoiy, necha solg‘ay oshub,
Ul pariy ko‘yida devonalig‘ing.

Bog' aro erdingmukim, bu kecha gulbez esti yel,
Boda ichtingmuki, behad ishratangez esti yel.

Yuz uza zulfungni qildingmu parishon noz ila
Kim, gahi gulbor-u, gohi anbaromez esti yel.

Yuz-u qadding shavqidin o'ldum, hamono bog'din
Ochilib gul, jilva aylab, sarvi navxez esti yel.

Elga ruxsor-u taning ochlb, magar berding hayot
Kim, umid ahlig'a gulposh-u samanbez esti yel.

G'unchalar shavqungda go'yo bog'lag'anlardur ko'ngul
Kim, nechakim, esti ul yondin, dilovez esti yel.

Bu chamanda bo'lsa yel sokin, o'char sham'i hayot,
Yorutur anduh-u g'am o'tin, agar tez esti yel.

Ey Navoiy, ranj ila xush bo'lki, Farhod ohidin
Bilki, qo'pti tashlamoqqa toji Parvez, esti yel.

Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga,
Andoqki, qurbi taqvi-yu toat bila sanga.

Topmoq ajib fikr-u taxayyul bila seni,
Yetmak xayol aql-u farosat bila sanga.

Chun koinot zubdasi ojiz ko'rub o'zin,
Hamd eta olmas oncha fasohat bila sanga.

Izhori ajz bizdin adab tarkidur base,
Yuz ming qusur-u nuqs-u kasofat bila sanga.

Har tiyra ro'zgorki, vaslingg'a yo'l topib,
Sendin yetib charog'i hidoyat bila sanga.

Lutfung rafiqim o'lmasa, ne hadki, yetkamen
Boshtin-ayoq gunoh-u zalolat bila sanga.

Chun sendin o'zga yo'q panahim, qochmayin netay
Jurmuh gunahdin oh-u nadomat bila sanga?

Isyoni ko'p Navoiyning-u yo'q uyotikim,
Istar yetishsa muncha xijolat bila sanga.

Lutf aylagilki, mumkin emas qilmasang qabul,
Yetmak tamomi umr ibodat bila sanga.

Yo rab, ulus nihoni emastur nihon sanga,
Ne dey nihon g'amimni, erur chun ayon sanga.

Qaysi makon aro seni istayki, kavnda
Sensiz emas makoni-yu yo'qtur makon sanga.

Amringdin ayru tilga takallum chu yo'q, ne ayb,
Gar hamd ayta olmasa bu bezabon sanga.

Ey kosh, topsa jon-u ko'ngul oncha qurbkim,
Jonni ko'ngul, ko'ngulni fido qilsa jon sanga.

Zohir qilurda hojat erur hazratingda teng
Sultoni asru soyili bexonumon sanga.

Izbori ajz etarda janobingda birdurur
Neshi sinuq singak bila pili damon sanga.

Chun pashsha ojiz o'lidi, yuz mencha qurbi bor,
Hayhot, agar yetarni men etsam gumon sanga.

Haq sirridin, Navoiy, agar istasang nishon,
Jahd aylagilki, qolmasun avval nishon sanga.

Yo rab, bu xasta ulcha tamanno qilibdurur,
Chun bor ayon sanga, nesin aylay bayon sanga?

Falak nilufarin din chashmayi mehr o'ldi gar paydo,
Yuzungda nildin ul chashma qilmish nilufar paydo.

O'qung ko'nglumga yetgach, qatra qonlar tomdi, kim
ko'rmish

Nihol andoqki oni tekkach o'q, bo'lg'ay samar paydo.

Achig' so'z birla bel qatlimg'a bog'lar, turfaroq, bukim,
Nazarg'a ne og'iz zohirdur andin, ne kamar paydo.

Labi shavqi ichimda, yuzda qon yoshim, ajab ermas.
Yuzida la'l yutqorning bo'lur derlar asar paydo.

Ko'ngulni to parishon aylading, yuz barqi g'am sochti,
Nechakim o'tni qo'zg'arlar, bo'lur andin sharar paydo.

Yorutti vasl sham'i ahli hijron tiyra avqotin,
Mening shomimg'a, vahkim, qilmadi davron sahar paydo.

Ajal qasrin hakimi sun bas mushkil tilsim etmis,
Ki har kim anda kirdi, bo'lindi andin xabar paydo.

Masihodin dam urmangkim, habibim gardig'a yetmas,
Agar Jibrildek ilkidin oning bo'lsa par paydo.

Navoiy ishqin, ey zohid, sening panding ayon qildi,
Bale, ayb o'limg'uncha oshkor, o'lmas hunar paydo.

Manga ne manzil-u ma'vo ayon, ne xonumon paydo,
Ne joni mdin asar zohir, ne ko'nglumdin nishon paydo.

Xirad maxfiy, badan foniy, ko'ngul g'oyib, tarab ma'dum,
Bori sahl erdi, bo'lsa erdi ul nomehribon paydo.

Shikeb-u aql-u hush it mish, qaror-u sabr-u jon ket mish,
Ne g'am, gar bo'lsa ul oromi ruh-u quti jon paydo.

Xayoli jonda paydodur, so'zi afg'onda paydodur,
O'zi ham vah, netay, ollimda bo'lsa bir zamon paydo.

O'lar holatdamen onsiz, tarabdin o'lmayin ko'r may,
Demang, ta'jil ila ul umr bo'lsa nogahon paydo.

Qiyomat erdi ul mahkim, yuz ochti, ey musulmonlar,
Bo'lung voqifki, bo'ldi fitnayi oxir zamon paydo.

Kesar yuz sarvni har dam, qilur yuz naxlni xurram,
Taajjub, ko'rki, bu gulshanda ermas bog'bon paydo.

Hazar qilmoq qazo jalloclidin bo'lmaski, yillardur
Qilur qatl, uylakim, ne tiyg' erur zohir, ne qon paydo.

Sanga jon shavqidin berdi Navoiy, yo'q ajaldinkim,
Ajal topquncha ermas ul zaif-u notavon paydo.

Mehnat o'qidin qabaqdek qolmisham afg'on aro,
Kim bugun chobuksuvorim yo'qturur maydon aro.

Tiyralikdin ko'r etibtur ko'zlarim har kungi gard
Kim, bor erdi to'tiyo bu diydayi giryon aro.

Senki bu maydonda yo'qsen, paykaredur joni yo'q,
Har pari paykarki markab sekretur javlon aro.

Garchi har sho'xe surar maydong'a o'q yanglig' samand,
Chun sening raxshing emas, billah, o'qidur jon aro.

Ter oqizg'an ablaqingdekdur seni kelgaymu deb,
Har sari tushgan ko'zum yuz ming duri g'alton aro.

Onsiz urmish halqa chobuklar, ne yanglig' itmayin,
Kim ko'runmas zarra, xurshid o'lmasa davron aro.

Mehrdek kel tavsani gardunga mingilkim, sipehr
Past etarda farq yo'q xurshid ila Kayvon aro.

Kel quyosh zangin falakraftorlig' raxshingg'a os,
Kim to'zar ul zang navhang nag'masin afg'on aro.

Ey Navoiy, ket bu maydondinki ul hur o'lmasa,
Billah, o'lsam turmag'aymen ravzayi rizvon aro.

* * *

Kimki ko'rsa mushki nob ul sunbuli serob aro,
Bir qaro tufrog' degaykim tushti mushki nob aro.

Qoshing ichra rishtayi jonimg'a chirmang'on ko'ngul
Ankabutedurki, aylabtur vatan mehrob aro.

Ul quyoshdin ayru ashkim yomg'urining barqidur
O't tutashqan rishta yanglig' jismi pech-u tob aro.

Ul labi unnobgun ko'nglumda ekkan tuxmi mehr
Ko'nglum ichra yoshurun durdonadek unnob aro.

Uyqu saydi qasdig'a otqon toshingdindur nishon,
Ko'z qarosi demagil bu diydayi bexob aro.

Charxi doir bahridin el tutmasun sohil umid,
Kim qutulmas har kishikim, tushti ul girdob aro.

Gar Navoiy yodini qilmoq habib imkon emas,
Basdudur mazkur ham bo'lsa gahi ahbob aro.

Necha ko'nglum yora bo'lsa, rahm qilmas yor anga,
Necha bag'rim to'lsa qon, boqmas dame dildor anga.

Bir yuguruk tifl erur kirpiklarim ichinda yosh,
Kim, yiqilib sonchilibtur har tarafdin xor anga.

Nomam eltur qush agar mazmunin eltib qilsa sharh,
Sochqay o't qaqnus kibi ming chok o'lub minqor anga.

La'ling ollida chekar el jonini olg'ach ko'zung,
Vah, ne sharbatdur labingkim, jon berur bemor anga.

Aql uyi sori inonin boshlamoq, nosih, ne sud,
Telbakim, dasht uzra markabdur buzuq devor anga.

Tortasen isyon yukin, xam qil qading toatg'akim,
Yuk og'ir bo'lsa, ruku ul dam bo'lur nochor anga.

Umr g'aflat uyqusi birla tilarsen, kecha, oh,
Ko'z yumub-ochquncha kimning i'timodi bor anga?

Men xud o'ldum, ey sabo, ko'nglumni ko'rsang ko'yida,
Chiqma andin, deb nasihat qilg'asen zinhor anga.

Zor jismim tushgali hajr o'tidin g'am changiga,
Ey Navoiy, o'xshashur ham ud anga, ham tor anga.

Ul parivashkim, bo'lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqidin olam manga hayron-u men hayron anga.

O'qlaringdin har zamon taskin topar ko'nglum o'ti,
Bordurur bir qatra suv go'yoki har paykon anga.

Bir dilovardur ko'ngulkim g'am sipohi qalbida,
Ohi novak toza dog'idur qizil qalqon anga.

Novakining parru paykonida rangin tus erur,
Yoki ko'nglumdin chu parron o'tti, yuqmish qon anga.

Nomayi shavqum ne nav ul oyg'a yetgay, chunki men
El otin o'qur hasaddin yozmadim unvon anga.

Xizr xattingning ajab yo'q sabzu xurram bo'lmog'i,
Lab-balab chunkim suv berur chashmayi hayvon anga.

Ey xusho mug' dayrikim, ziynat bila rif'atda bor
Mehr anga bir shamsavu ko'k toqi bir ayvon anga.

Istamish bulbul vafo guldin, magarkim joladin
Bag'ri qotmisht g'unchaning baskim erur xandon anga.

Qilmag'on jonin fido jonong'a yetmas der emish,
Ey Navoiy, ushbu so'z birla fido yuz jon anga.

Qahring o'lsa barcha ishimdin malolattur sanga,
Lutfung o'lsa yuz meningdekdin farog'attur sanga.

Ey, meni sargashtadin gah forig'-u gohi malul,
Qahring ul, lutfung bu, yo rabkim, ne odattur sanga?!

Lutfung ozi jon olur, qahring ko'pi ham o'lturur,
Bul'ajab holedurur, oyo, ne holattur sanga?!

Pand eshitmay sevdung oni, ey ko'ngul, chek dard-u ranj,
Ozdurur har lahza gar yuz muncha ofattur sanga.

Vahm et ohim o'tidin, ey gulki, davron bog'ida
Ko'z yoshimdin bu qadar lutf-u tarovattur sanga.

Ey quyosh, mehr ahlini kuydurma bu vodiydakim,
Garmro'lar ohidin muncha harorattur sanga.

Ey Navoiy, istama vasl ul quyoshdin zarradek,
Chun necha ul qilsa istig'no – haqorattur sanga.

* * *

Vahki, ishqing zohir etsam vahm erur o'lmak manga,
Gar nihon tutsam dog'i jon xavfidur beshak manga.

Kelgan ermish ul Masih o'lganlarin tirkuzgali,
Men tirik, vah, yaxshiroq bu umrdin o'lmak manga.

Juzv-juzvimni, fig'onkim, munfak etti tiyg'i hajr,
Bir-biridin lek o'zidur juzvi loyanfak manga.

Ko'nglum o'tidin yig' och kuldur, boshoq bir qatra suv,
Nogah ul sho'xi jafokash otsa bir novak manga.

Oltun ezib, erib kuygan soyi xolis bo'lur,
Ne ajab, sorg'orsa yuz yetgan soyi emgak manga.

Chok aylarmen yaqo ul qoshi yoni ko'rgach-o'q,
Kim xadangin otsa hoyil bo'lmasay ko'nglak manga.

Boda hajridin oqarmish ko'zlarim, ey piri dayr,
Aylagil may shishasidin sindurub aynak manga.

Sarsari hijron, vujudum xirmanin andoq sovur,
Kim fano yo'lida sarsar bo'lmasun hamtak manga.

Ey Navoiy, gar manga ko'prak emas ummedi vasl,
Bas nag'o' ushshoqdin javri erur ko'prak manga.

* * *

Labing sori tokim nazardur manga,
Yosh o'mida xuni jigardur manga.

Dema, mendin ayril, dog'i umr sur,
Ki ul umr o'lumdin batardur manga.

Tuganlar diram shaklidur zod uchun,
Adam sori chunkim safardur manga.

Qilur ayb oshiqlig'im barcha xalq,
Ulus aybi, vahkim, hunardur manga.

Tabibo, yana sabrdin dema so'z,
Ki bu sharbatingdin zarardur manga.

Dema, mayni tark etki, soqiy yuzi
Bu ko'zgu aro jilvagardur manga.

Chuchukdur qamish o'qlaring jonima,
Bu nay ichra go'yo shakardur manga.

Navoiy, ul oy hajrida tun-u kun
Qotiq shom-u tiyra sahardur manga.

* * *

Ravshandururki, mehr yuzungdin olur safo,
Yo'qsa, ne zajh ila qamar andin topar ziyo?

G'arqi muhiti ishqing edi jon ila ko'ngul,
Ul damki, ruh emas edi tan birla oshno.

Gulda yuzung latofatidin range ko'rmasa,
Bulbulg'a ne edi bu fig'on birla, bu navo?

Bir zarra og'zi ramzini har kimki angladi,
Yo'li adam tariqidur-u zodi rah – fano.

Ul zindadil hayoti abad vaslidin topar,
Kim neshi g'amni no'sh der-u dardni davo.

Lomiki, vasl ayog'ig'a topmishtur ittisol,
Ul «lom»durki, o'rtag'a olmish oni «balo».

O'zdin qutul, Navoyi-yu maqsadg'a yetki, qush
Yetmas chamang'a, bo'lqa qafas ichra mubtalo.

Zor jismimg'a xadanging zaxmidin ortar navo,
Sozdekkim, teshsalar oni fuzun aylar sado.

Qaddi hajrida g'amim sham'ini har devorg'a,
Kim tayabmen sarv andomi bila bo'lmish qaro.

G'unchang anfosi nasimi zavraqi jon qasdig'a
Yetkurur har dam adam daryosidin mavji fano.

Orzuyi vaslidin ranjur erur munlug' ko'ngul,
Qut uchun tazvir ila bemor bo'lg'ondek gado.

Nega yig'lab anbariy zulfin kesar hijron tuni,
O'lmagimni anglabon gar sham tutmaydur azo?

Hajr dardin ko'ngluma kam qildi xoling oqibat,
Dog' emish dardi shaloyin xastag'a oxir davo.

Ruhparvardur Navoiy ohu ul yuz shavqidin,
Ul sifatkim lolavu gul yuzidin kelgay sabo.

* * *

Labingdin xasta jonkim bo'ldi betob,
Emas betob, anga erur shakarxob.

Yoshimdin obro'yum bordi, bildim,
Ki ravnaqsiz qilur oltunni siymob.

Qoshing hajrida har na'leki kessam,
Kelur payvasta, jono shakli mehrob.

Qilich bog'i beling quchqan hasaddin
Ko'zumga ajdaredur shakli qullob.

Ko'zum ollindadur la'ling xayoli,
Emas kirpiklarim ustida xunob.

Firoq ilgi, fig'on, jon rishtasidin
Chiqorur tordin andoqki mizrob.

Falak boshingg'a qoplab it terisin,
Sen oni jahldin deb kishu sinjob.

Ajab yo'q, odamiyliqni unutsang,
O'zungni telba it charmida asrob.

Navoiy, ranj ko'rma, og'zin istab,
Kim ul bir javharedur asru noyob.

* * *

Ko'rub dardim, tarahhum qilmading hech,
To'kub ashkim, tabassum qilmading hech.

Firoqing o'ti ichra necha yig'lab,
Fig'on chektim, tarahhum qilmading hech.

Jahong'a ohu ashkim soldi oshub,
Bu to'fondin tavahhum qilmading hech.

So'zung shavqidin erdim xasta umre,
So'rarg'a bir takallum qilmading hech.

Musallam ishq, ey ko'nglum, sengakim,
Ko'rub zulmin, tazallum qilmading hech.

Muhabbat ahli qismin nevchun, ey charx,
Qilib mehnat, tana'um qilmading hech.

Navoiy sori, ey davri muxolif,
Navo savtin tarannum qilmading hech?!

* * *

Tong emas, gar bo'lsa har sarvi pariruxsor sho'x,
Lek erur sarvi pariro'yum mening bisyor sho'x.

Gar mening sho'xi sitamkorim parizod o'lmasa,
Mumkin ermas odamiy bo'lmos'lig' ul miqdar sho'x.

Turmasa qon bu kecha ko'ksum shikofidin, ne tong,
Kim erur ko'nglumga kirgan chobuki ayyor sho'x.

Vah, ne tong, har lahza betoqatlig'imkim, dilbarim
Bovujudi husn ham shirin erur, ham bor sho'x.

To yetishgay jonne kuydurgan ko'ngulga yuz balo,
Shukr etarmenkim, nasib o'l mish manga dildor sho'x.

Sho'xlardin tuz qadam qo'ymoq chu kelmas, voqif o'l,
Ham sitamgar chobukedur charxi kajraftor sho'x.

Gar desangkim, jong'a yetmay har zamon bir javrdin,
Ey Navoiy, pand eshit, yor istama bisyor sho'x.

Yana sensizin munisim g'am bo'lubtur,
Ko'zumga yurak qoni hamdam bo'lubtur.

Qarorib ko'zum dam-badam zor yig'lar,
Anga shomi hajringda motam bo'lubtur.

Yaramdin chekarga o'qin sa'y qilmang,
Ki paykon so'ngak ichra mahkam bo'lubtur.

Ichimdin nechuk tortqaylar o'qinkim,
Ko'ngul qo'ymas-u jon madad ham bo'lubtur.

Ko'ngulga yoqar kirpigingning xayoli,
Mening zaxmima nesh marham bo'lubtur.

G'uborin tilab yig'lama har dam, ey ko'z,
Ki ashkingdin-o'q yer yuzi nam bo'lubtur.

Bu gulshan aro barg to'tilarig'a
Xazon tifli bas boisi ram bo'lubtur.

Vafo shaxsining farqini charx tiyg'i
Ikki bo'ldi, vahkim, biri kam bo'lubtur.

Emas g'am yukidinki, qoshingni ko'rgach,
Navoiy sujud etgali xam bo'lubtur.

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,
Kim jong'a qaro balo bo'lubtur.

Majmu'i davoni dard qildi
Dardingki, mango davo bo'lubtur.

Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki sango fido bo'lubtur.

Begona bo'lubtur oshnodin,
Begonag'o oshno bo'lubtur.

To qildi yuzung havosi jonom,
Yuz sori ango havo bo'lubtur.

Boqiy topar ulki bo'ldi foniyl,
Rahravg'a fano baqo bo'lubtur.

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo'lubtur.

Fig'onki, yor vafo ahlig'a sitam qiladur,
Niyoz-u ajz gunohig'a muttaham qiladur.

Naimi vaslida xo'y aylagan ko'ngullarni,
Asiri hajr etibon, mubtaloyi g'am qiladur.

Raqib behuda taqriri birla yuz taqsir
Zaif g'amzadalar otig'a raqam qiladur.

Ne hukm qilsa vafo xayli jurmida g'am emas,
Bu zulm erurki, jafo ahlini hakam qiladur.

Uz ilgi birla gar o'ltursa bok yo'q, vahkim,
Raqib ollida aftodavu dijam qiladur.

Muhabbat ahlini «vo hasrato»ki ko'p o'rtab,
Alaming ohi o'tidin haros kam qiladur.

Chu gul vafosiz erur, necha asrasa, vahkim,
Ko'ngul qushi bu gulistondin emdi ram qiladur.

Zamona o'q kibi tuzlarni sindurub yodek,
Alarki egridurur, shahg'a muhtaram qiladur.

Navoiy o'lgay edi bo'lmasa umidi visol,
Bu qasdlarki, anga hajr dam-badam qiladur.

Sarvqadlar agar bir-u gar oz,
Yuzdin ermas biri bizing bila tuz.

G'arazim ul sanamg'a sajda durur,
Yer o'pay deb qoshida qo'ysam yuz.

Yuzidin zulfig'a ko'ngul bormas,
Kimsa shabravlig' aylamas kunduz.

Ne birov bo'lsa hamrahing toqat,
Ne tahammulki, kezgasen yolg'uz.

Har ko'zum ul quyosh firoqi tuni
Bir falakcha ayon qilur yulduz.

Bormen, ey piri dayr, bas maxmur,
Karam ayla, karomate ko'rguz.

Qaddi hajrinda tortsang nola,
Rost ohangi, ey Navoiy, tuz.

* * *

Onsiz o'lmoq erur o'lmoq jonsiz,
Bo'layin jonsiz-u bo'lmay onsiz.

Qoshi bu chok ko'nguldin ayru
Filmasal yoye erur qurbonsiz.

Ohkim, dard yuzidin chiqmas,
O'q emas bo'lsa erur paykonsiz.

Ishq daryosig'a, eykim, kirding,
Bilki, bu bahr erur poyonsiz.

Yorsiz ko'nglum erur oshufta,
Mulk oshub topar sultonsiz.

Suv-u o't ichra siz, ey ko'z-u ko'ngul,
To ul oy orazig'a hayronsiz.

Gar Navoiy chekar un hajr tuni,
Yo'q ajab, tun emas it afg'onsiz.

Jamoli yuzini chekkan tarozu oyu quyosh,
Magar bu birida nur erdi, ul birisida tosh.

Gar oyda tosh emas erdi, quyoshda nurindin
Qudurat ichra qolib oy, munavvar o'ldi quyosh.

Quyoshg'a nurki yuqmis, hanuz erur ul nur,
Hanuz oy ichra hamul tosh erurki bo'l mish fosh.

Uruj aqshomi tegrangda oyu kavkabiar,
Masih girdida andoqli bir necha xuffosh.

Yuzi tubon tushubon markabing izig'a malak,
Yer uzra qursni qilg'on kibi gadoy talosh.

Chu qurb Qofiq'a yetting, yetishmadi Jibril,
Ne nav hudhud simurg' ila bo'lur yo'ldosh?

Ayog'ig'a chu maloyik boshin qo'ya olmas,
Navoyiyo, qo'yako'r itlari ayog'ig'a bosh.

Yozuqsiz, jurmsiz bedod etar fosh,
Manga ul surmasiz ko'z, vo'smasiz qosh.

Fig'onkim, bu taraf boqmay o'tarsen,
Nechakim ko'zlarim yummay to'kar yosh,

Sirishkim seyli har yon uyla surdi,
Ki topmon ko'ksuma urmoq uchun tosh.

Iliging o'pgali ochmish og'izlar
Qilichingdin sarosar zaxmliq bosh.

Hamono qolmas o'z holida rangi,
Sizarda suratingni ko'rsa naqqosh.

Bahodur naqdi din, ey dayr piri,
Karam qil mayki, borbiz asru qallossh.

Demish, kelsam Navoiy qatli aylay,
Kellb, ne ko'ngli istar, aylagay kosh.

* * *

Ul sarv uzori guli serobdek ermish,
La'li labl gul uzra mayi nobdek ermish.

Ko'rdum qoshi aksini ko'ngul kuzgusi ichra,
Bu qiblanamo, ul munga mehrobdek ermish.

Ko'rdum ko'ngul ahzolini ko'ksum to'shugidin,
La'ling g'amidin qatrayi xunobdek ermish.

Devona ko'ngul qaydi junundin ne qutulsun,
Kim har xami zulfung anga qullobdek ermish.

Husn anjumanı ichra yuzin ko'rmamish erdim,
Anjum aro xurshidi jahontobdek ermish.

Tut faqr etagin, atlasi zarbaft so'zin qo'y,
Kim ul dog'i tan hifzida moshabdek ermish.

Bir yo'li Navoiyni yiroq solma nazardin,
Kim ul dog'i bir kun sanga ahbobdek ermish.

Yordin ayr-u ko'ngul mulkedurur sulton yo'q,
Mulkkim sulton yo'q, jismedururkim joni yo'q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufrog'dekdurkim, gul-u rayhoni yo'q.

Bir qaro tufrog'kim, yo'qtur gul-u rayhon anga,
Ul qarong'u kechadekdurkim, mahi toboni yo'q.

Ul qarong'u kechakim yo'qtur mahi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo'q.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni oning bo'limg'ay,
Do'zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo'q.

Do'zaxekim, ravzayi rizvondin o'lg'ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastliq imkon'i yo'q.

Ey Navoiy, bor anga mundog' uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi, va lekin vasldin darmoni yo'q.

* * *

Bo'lmas ermishtilrabolar ahdi mahkam, ey rafiq!
Gar kishi derkim: bo'lur, tutma musallam, ey rafiq!

Har parizodiyki o'z majnunig'a qilmish vafo,
Bilki, andindurki ermas nasli odam, ey rafiq!

Mohvashlar shomi zulfi ne uchun oshuftadur,
Tutmamish bo'lsa vafo ahlig'a motam, ey rafiq!

Dard muhlik umrning ta'jili ko'p joning uchun,
Kim Masihimni ketur boshimg'a bir dam, ey rafiq?

Qo'ydi bir o'tlug' fatila dog' uchun har g'unchadin,
Charx to gulshanni ko'rди sabz-u xurram, ey rafiq!

Gul emas gulbunda qonlig' dog' erurkim nastaran,
Tevruk aylabdur momuq qo'ymoqqa marham, ey rafiq!

Bu munaqqash saqf tarixi yozig'liq chun emas,
Ko'p mashaqqat chektim, ammo qoldi mubham, ey rafiq!

Men xud ettim azm mug' ko'yida rasvo bo'lg'ali,
So'z eshit, albatta, mendin qolma sen ham, ey rafiq!

Ich, dog'i tutqil Navoiyg'a qadahkim, arzimas
Bir nafas hushyor bo'lmonliqqa olam, ey rafiq!

Ey, kalomi jonfizoying naqdi jondin yaxshiroq,
La'li jonbaxshing hayoti jovidondin yaxshiroq.

Garchi hajringdin yomon holatdamen, lekin manga
Kimki ondin yaxshiroq yo'q, sensen ondin yaxshiroq.

Xalq tarki ishqining aylarga biravni qatl uchun
Gar tilarsen, topmog'ung men notavondin yaxshiroq.

Ishq sahrosida yod etma vatandin, ey xirad,
Kim bu nav ovoraliq yuz xonumondin yaxshiroq.

Istasang, ey ishq, Majnun o'rning'a sargashtaye,
Bilki, topqung yo'q bu rasvoysi jahondin yaxshiroq.

Dayr aro yaxshi-yamon ollida bosh qo'ysam, ne tong,
Kimki yo'q andin yamonroq, men yamondin yaxshiroq.

Ey Navoiy, xurdayi nazmingg'a isloh istasang,
Kimsa qilmas oni shohi xurdadondin yaxshiroq.

* * *

Ohkim, g'am tiyg'idin ko'ksumni qildi chok ishq,
Dudi ohimdin ko'zumni ayladi g'amnok ishq.

Dard kirmak birla jon chiqmoqqa gar yo'l qilmadi,
Ne uchun g'am tiyg'idin ko'ksumni qildi chok ishq?

Ul pari ko'yidakim har lahza yuz ming bosh borur,
Sudrabon eltur meni devonani bebok ishq.

Ko'zuma har dam yorug'roqdur yuzungnung ko'zgusi,
Xosiyat mundoq emish har kimda bo'lsa pok ishq.

Oshiq o'ldi xasta jon ko'rgach ul otashporani,
Olloh-olloh, barq ila o'ynaydurur xoshok ishq.

Ishq vodiysig'a kirgan yonki, andin har quyun,
Kim chiqar sargashtayedurkim qilibdur xok ishq.

Ey Navoiy, oshiqekim sen kibi istar farog',
Gar erur Majnunki, ul qilmaydurur idrok ishq.

Chiqsa jonim, ayb qilma, jismi bemorimg‘a boq,
Kuysa jismim, hayrat etma, nolayi zorimg‘a boq.

Hajr dashtining guli gar lola bo‘lsa, seli qon,
Qilmag‘il, ey gul, taajjub, chashmi xunborimg‘a boq.

Eyki, ko‘rmaysen quruq shoxe bezalgan gul bila,
Hajr toshidin sarosar jismi afgorimg‘a boq.

Zulfin ochti ul sanam, ey shayx, bovar qilmasang,
Kim asiri kufrmen, but birla zunnorimg‘a boq.

Yer bila teng qildi xokiy.tan uyin ashkim suyi,
Ishq selidin yiqlig‘on eski devorimg‘a boq.

Qilmasang tavbamni sindurg‘onni bovar, ey faqih,
Xirqayı chokimni ko‘r, oshufta dastorimg‘a boq.

Bosh ko‘tarmay maydin, ektim jurm tuxmi barcha umr,
Ey Navoiy, umr etib zoyi’ sar-u korimg‘a boq.

Demangiz, ahbobkim, qilmasmusen bas yig'lamoq?
Kim manga tengri nasib etmishtuganmas yig'lamoq.

Asray olmon o'zni, ashkim tutti dasht-u tog'ni,
Nechakim Farhod-u Majnun dedilar bas yig'lamoq.

Mast-u oshiqmen, dog'i ko'nglumda ayrilg'on kishim,
Ey musulmonlar, ne tong, men zori bekas yig'lamoq?

Tong emas, jismim oqizurg'uncha ko'z gar to'kti ashk,
Ne ajab, abri bahoriy oqqucha xas yig'lamoq?

Tiyra hajring shomida gar jon talashmoq tongg'acha,
Boshima sham-u surohiy nedurur, bas yig'lamoq.

Dahr bog'idin vafosizlig' agar fahm etmadni,
Nega shabnam ashkidin fan qildi nargis yig'lamoq?

Ey Navoiy, toqini men dog'i ashkimdin yiqay,
Chun manga qism etti bu charxi muqarnas yig'lamoq.

* * *

G'am xazonin zohir etmish chehrayi zardim mening,
Borg'ali yeldek bahori nozpavardim mening.

Telbalardek so'zlashurmen o'zum birla mudom,
Chun o'zumdin o'zga yo'q olamda hamdardim mening.

Tufrog' o'lsam ko'yida, ey abri rahmat yomg'uri,
Qil madad onchakim, andin chiqmag'ay gardim mening.

Chiqti jon bilmay maqomin, mujdaye ber, ey Masih,
Kim qayu manzildadur mehri jahongardim mening.

Har necha ko'nglumsovug' ohidin aytur, ohkim,
Yorg'a yoqmas nekim aytur bu damsardim mening.

Rizq chun maqsum erur, bir qurs uchun har kun nedur
Charxdek sargashtalik ko'yida novardim mening?

Ey Navoiy, toki urdi mehr naqshin tosi charx,
Bu bisot ichra ajab shashdardadur nardim mening.

Ko'ngullar quti shirin dostoning,
Bag'irlar qoni la'li durfishoning.

Nihon-u oshkoror men sanga yor,
Sening ag'yor illa rozi nihoning.

Muhibiar birla har tun bizdin ayru
Qadahlarkim chekarsen, no'shi joning.

Vale vahm ayla andinkim chekib voy,
Damodam qon yutar bir notavoning.

Ajab la'lesen, ey ashki jigargun,
Ajab yo'qkim, erur g'am tog'i koning.

Kular, ey bog'bon, har g'uncha, go'yo –
Ki g'ofildur xazondin gulsitoning.

Navoiy ishq vodiysig'a kirdi,
Xatarliq yo'ldurur, ahbob, yoning.

* * *

Rafiqlarni borin yor-u mu'tamad qilding,
Aroda tek meni mardud edimki, rad qilding.

Falak jafosi, ulus ta'ni-yu firoqing o'ti
Bas ermas erdiki, sen ham yana madad qilding.

Kechib jahon bila jondin seni dedim, jono,
Magarki qatlima bu jurmni sanad qilding.

G'araz chu o'lmagim erdi, bar erdi lutfung ham,
G'azab ne erdiki, ey sho'xi sarvqad, qilding?

G'amningni chekkali yolg'uz ko'ngul edi ojiz,
Ki tig'i furqat ila oni yuz adad qilding.

Chu baxt axtari Sa'd o'ljadi, ne sud, eykim,
Sipehr zijini hal qilg'ali rasad qilding.

Navoiy, yor ne javr etsa, jong'a minnat qo'y,
Azalda chunki bu da'voni to abad qilding.

Hajrdin ko'zumga olamni qarong'u aylading,
Umrdin ko'z yumg'anim ul tunda uyqu aylading.

Jon-u ko'nglum muddate sargashtadur ko'yung aro,
Boshlarin aylandururg'a buyla jodu aylading.

Holima qolur taajjubdin el og'zi ochilib,
Yo'qsa ahvolim jahon aqlig'a kulgu aylading?

Ashki siymobiymudur hajringda yo ko'z oqini
Hal qilib, ko'zdin ravon ul navkim su aylading.

Qoldi mahmizingdin oy yuzinda, ey chobuk, nishon,
Go'yiyo javloni kuni oni teping-u aylading.

Shohidi davrong'a go'yo, ey tarab mashshotasi,
Bodani gulgunavu sog'arni ko'zgu aylading.

Eyki, aytursen zamon ahlig'a yo'q ermiss vafo,
Oni ma'lum, ey Navoiy, bu zamonmu aylading?!

* * *

Kimga bir majlisda oh-u dard ila so'ze kerak,
Mundoq o't yoqmoqqa avval majlisafro'ze kerak.

Majlisafro'ze agar ham bo'lsa, majlis ahlining
Bag'rini kuydurgali ohi jigарso'ze kerak.

Subhi vasling ichra tиргuz xayli ushshoqingnikim,
Shomi hajr, o'lturg'ali mendek siyahro'ze kerak.

Ko'yungga har kun borib har dam ko'ray dermen seni,
Menga har kun bayram-u har lahza navro'ze kerak.

Yaxshi asra g'am tuni ohim o'qin, ey charxkim,
Sen ivaz otmoqqa ham chun tiyri dildо'ze kerak.

Bir Xizrvash himmatin berma ilikdin, negakim
Dashti hirmon qat'iga oxir qalovuze kerak.

Ishq ta'limin Navoiydin olurlar ahli dard,
Uyla dars ahlig'a mundoq donishomuze kerak.

Hajr o'tig'a istasang yoqilmag'aysen, ey ko'ngul,
Yordin zinhorkim ayrlmag'aysen, ey ko'ngul.

Vah, ne tolidurki topmay umre istab yorni,
Chun seni yor istagay, topilmag'aysen, ey ko'ngul.

Buki qon bo'ldung desangkim, oshkoro bo'lmasun,
Mayl etib yoshlar sari qotilmag'aysen, ey ko'ngul.

Desalar: Laylim-u ortuq husn aro yo ul pari?
Garchi Majnunsen, kerak yong'ilmag'aysen, ey ko'ngul.

Qildi chun soqiy labi yetgan qadah hushungni mahv,
To abad zinhorkim oyilmag'aysen, ey ko'ngul.

G'unchasin g'amdin vale soqiy bahori orazin
Ochsa, bilmonkim, nedin ochilmag'aysen, ey ko'ngul?

Davlati boqiy Navoiydek erur topmoq mahol,
To tamom o'zlukni foniq qilmag'aysen, ey ko'ngul.

Ey musavvir, dilbarimg'a suvrate monand qil,
Ko'rmagidin xotirimni gah-gahe xursand qil.

Ul harir uzraki tarh etgungdurur timsolini,
Sig'masa, zaylig'a jonim pardasin payvand qil.

Bo'lmasun bu to'madin mahrum ul kuy itlari,
Ey ajal, taqsim uchun bag'rimni yuz parkand qil.

Ul parivash chiqtı usruk sekretib ko'nglagcha, voy,
Nosihon, devona bo'ldum, emdi tarki pand qil.

La'li shirindinki qilding ayshni jonimg'a talx,
Necha achig' so'z demak, bir qatla shakkarxand qil.

Jomi Jamning rohi Afridun yiloni zahridur,
Ey ko'ngul, o'zni safoli faqr ila xursand qil.

Hojati budur Navoiyning, xudoyokim, ani
Mug'bacha husnig'a mug' dayrida hojatmand qil.

* * *

Ul quyosh og'zi uza mushkin hol,
Zarraning nuqtasidin keldi misol.

Gar ravondur, ne tong, ul qadki, erur
Ruh sarchashmasida toza nihol.

Raxsh har yonki surar ul chobuk,
Yugurur tegrasida payki xayol.

Chobukumning otining na'li emas,
Tushti shabrang ayog'ig'a hilol.

G'uncha og'ziki takallum qilmas,
Ul og'iz g'unchasi qilmish ani lol.

Hajrning chorasi bexudlug' emish,
Soqyo, jom ketur molomol.

To Navoiydek o'lay oni ichib,
Mast-u Majnunsifat-u shifthol.

* * *

Ul pari nazzorasig'a, vahki, yo'qtur toqatim,
Kim qachon qilsam nazar, devona aylar hayratim.

Bas, ne nav aylay tamannokim, visoli sham'idin
Hajr shomi gah-gahi bo'lg'ay munavvar suhbatim.

Suhbatida bor ham topsam bu toli qaydakim,
Bir nafas mahramlari silkida bo'lg'ay xizmatim.

Xizmatig'a mahram o'lsam ham qachon imkoni bor,
Kim degay bir lahzaye bo'lg'il harifi xilvatum.

Bo'lsa ham xilvat tuyassar, vahki, hargiz yo'qturur
Poybo'si davlatin zohir qilurg'a jur'atim.

Gar ayoq sunsa ko'zumga ham ko'ngulni, voykim,
Ul zamon ko'z rashkidin kuydurgusidur g'ayratim.

Vasl umidin qo'y, Navoiykim, xayoledur mahol,
Bu mahol ummed ila har lahza berma zahmatim.

* * *

Mehr ko'p ko'rguzdum, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

G'am bila jonimg'a yettim, g'amgusore ko'rmadim,
Hajr ila dilxasta bo'ldum, dilsitone topmadim.

Ishq aro yuz ming malomat o'qig'a bo'ldum nishon,
Bir kamon abro'da tuzlukdin nishone topmadim.

Ko'nglum ichra sarv o'qdur, g'uncha paykon, gul tikan,
Dahr bog'i ichra mundog' gulsitone topmadim.

Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko'rmadim,
Ishq ko'yida o'zumdek notavone topmadim.

Ko'p o'qudum Vomiq-u Farhod-u Majnun qissasin,
O'z ishimdin bul'ajabroq dostone topmadim.

Ul amon ichinda bo'lsun, ey Navoiy, garchi men
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.

Tab ganjidan maoniy xurdasin, yuz qatla hayf,
Kim nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.

* * *

Yana firoq o'tig'a tushti tobliq' ko'nglum,
Tarahhumeki qiladur xaroblig' ko'nglum.

Sog'insa g'unchang uchun qong'a evrulur har dam,
Bu yuz jarohat ila pech-u tobliq' ko'nglum.

Firoq-u dard qachon tuzsa bazm kulbamda,
Berur ko'zum mayi la'l-u kaboblig' ko'nglum.

Erur sharoraki xurshid sori borg'ay tez,
Yuzung visolig'a jahd-u shitoblig' ko'nglum.

Yuzungan ko'rdum esa suv bila balig'dek o'lur,
Qarorsiz tanim-u izardiblig' ko'nglum.

Fano yeli qonikim ochsa chehrayi maqsud,
Ki tan g'uborida bo'lmish hijoblig' ko'nglum.

Navoiy g'am yedi-yu o'ldi, dog'i topti visol,
Ne topmasun bu sifat xo'rdu xoblig' ko'nglum?

Yer yuzini tutti ashkim, ko'kka yetti nolishim,
Yuqori tengri-yu quyi sendin o'zga yo'q kishim.

Lojaram devonavu rasvoyi olam bo'lg'amen,
Chun tushubtur, ey pari paykar, sening birla ishim.

Tish qadabmen la'lingga uzmasmen andin bu tama
Anburi hijron ila bir-bir sug'ursalar tishim.

Har biri yuz minnat aylarlar, erur bu ham jafo,
Yuz-u zulfung davrida mundoq kechar yoz-u qishim.

Tiyralik dud-u shafaqdur shu'lavu anjum sharor,
Go'yiyokim soldi o't hijron tuniga qarg'ishim.

Mehri yo'qlug'din erur har tun sinoni oh ila
Ko'k hisori xayli birla tongg'a tegr-u sonchishim.

Ey Navoiy, gar sening nolangg'a yig'lar andalib,
Bir kun ul gul ko'ngliga ham kor qilg'ay nolishim.

49

Bahor-u bog' sayridin ne gul, ne sarvdur komim,
Budur komimki, shoyad uchrag'ay sarvi gulandomim.

O'qung ko'p zaxmidin dom o'ldi jismim, zaxmlar ermas,
Chiqarg'a jon qushi yo'llar yasabtur har taraf domim.

Jamoling ko'zgusi chun elga ro'baro' bo'lur har dam,
Ne tong, qar ko'zqu aksidek zamone yo'qtur oromim.

Xusho Majnunki, ma'nusi edi boshig'a qo'ng'on qush,
Junun toshi yoq'ardin boshima ul ham emas romim.

Mangakim hajr za'fidin nafas ma'lum emas kelmak,
Ne imkon bas yetishmak ul Masihodamq'a payq'omim.

Firoqim kechasi bas muhlik o'lmish, gar sahar bo'lmas,
Nafas urmoqqa qo'yo subhni qo'ymas qaro shomim.

Aningdek tashnamen, ey mug'bachakim,
qo'sh tutar bo'lsang,
Falakning huqqasin bo'l ikki, to bo'lsin ikki jomim.

Baho bu benavodin gar qabul aylar esang, bordur
Biriqa javhari jonom, biriqa naqdi islomim.

Harom ettim Navoiy, dunyovu uqbo tamannosin,
Nedinkim Ka'bayi ko'y়ি sari boq'landi ihromim.

Ishq aro menmen dame bemehnat-u g'am bo'lmag'on,
Jonidin mahrum o'lub, jonong'a mahram bo'lmag'on.

Yuz vafo aylab, jafodin o'zga naf'e ko'rmagan,
Ming jafo ko'rub, vafosi zarraye kam bo'lmag'on.

Ming quyoshcha ko'rgan o'z yorin, vale yor ollida
Ming ulushidin birincha zarraning ham bo'lmag'on.

Olam ahli isbq aro rasvolig'im ta'n etmangiz,
Kimdurur oshiq bo'lub, rasvoysi olam bo'lmag'on?!

Anjum ermas, terdur ohim o'tidin ko'k saqfida,
Vahki, bu terdin binoye qolmadi nam bo'lmag'on.

Dastgire istakim g'amdin xalos imkon emas,
Ilgi bir zarrin kamar beliga mahkam bo'lmag'on.

Ey Navoiy, bilki, topmas la'lidin quti hayot
Jonni taslim aylamaklikda musallam bo'lmag'on.

Yonida bo'lmamasam nafase, dardnokmen,
Ko'rsam yonida g'ayr, xud ul dam halokmen.

Jonimg'a yuz g'am ignasini tiki ul Masih,
To bildikim, quyosh kibi ishqida pokmen.

Vasling taxayyuli-yu men, insofdin emas
Kim, ruhi pok sensen-u men tayra xokmen.

Vahm ayla, ey sipehr, bugun ohim o'qidin,
Kim hajr dardidin yana bevahm-u bokmen.

Juz vasl sharbati manga sud etmas, ey tabib,
Kim men firoq mehnatidin dardnokmen.

Zotimda chun mayi azaliy choshnisi bor,
Har sori mast qo'l solib andoqli tokmen.

Ohim, Navoyiyo, nechuk asray ko'ngul aro,
Chun men firoq tig'i bila siynayi chokmen.

* * *

Furqatingdin kechalar o'rtar meni baxti zabun,
Go'yiyo men bir yonar o'tmen, qarong'uluq tutun.

Ashk etib g'ammozlig', ko'nglum buzulsa, ne ajab,
Kim topar ozor yoshlardin mudom ahli junun.

Men tilarmen vasl-u oning ko'ngli har ag'yor ila,
Manga ikki tosh arosinda kerak albatta un.

Qadding-u imning havosi jondadur, ayb etmagil,
Bo'lsa afg'onim biyik, seli sirishkim la'lgun.

Kim kafanni yod etar, andin o'luk ogohroq,
Gar libosin bilsakim erur katan yoxud katun.

Seli ashkimdin falak g'amxonasi vayron edi,
Qilmasa erdi jafosi dudi ohimdin sutun.

Ko'rmasam qoshing bo'lurmen turg'onim birla fig'on,
«Voyiy» erur bas chu bo'lmasa «Navoiy» birla «nun».

Ishqing etagin jon iligi birla tutubmen,
Sen kirgali yodimg'a o'zumni unutubmen.

Ko'nglumga kelur har sori o'q otsa, nedinkim
Jon shirasidin og'zini oning chuchutubmen.

«Yoring, – dedilar, – g'ayr bila boda ichibtur»,
Tahqiqini bilguncha ne qochlarki yutubmen.

Garm o'lmangiz, ahbob tilab vasl charog'in,
Menkim yuragim kuydi, ne chog'lig' yorutubmen.

Hajring tuni ollimg'a ne mehnatki yetibtur,
Vasling kuni yodidin o'zumni ovutubmen.

Xilvat asari ujb ekanin angladim, ey shayx,
Ayb etma, fano dayrida gar kulba tutubmen.

Ashk ila Navoiy suv berur, sabr niholin
Bilmaski, oni ohim o'tidin qurutubmen.

G'amingda har kecha, ey gul'uzor, yig'larmen,
Saharg'a tegru chekib intizor yig'larmen.

Men-u qaro kecha, yo'q nisbatim sanga, ey subh,
Ki sen kularsen-u men sham'vor yig'larmen.

Burung'i mehr-u vafo, so'ngg'i javr-u zulmungni
Birin-birin sog'inib, zor-zor yig'larmen.

Kularlar el manga beixtiyorkim, har dam
Eshitsam otini, beixtiyor yig'larmen.

Mung'aydi ko'nglum aningdek, hazl nag'masidin
Ki elga kulgu etar, oshkor yig'larmen.

Kular sipehri daniy iztirobig'a ko'ng'lum,
Valek o'zumda ko'rub iztirob yig'larmen.

Navoiy, ashkim oqizg'ay g'amim tunin mundog',
Ki charxdek kecha tutmay qaror, yig'larmen.

* * *

Ne tirikmen, ne o'luk; ne sog', ne bemormen,
Ayta olmonkim firoqingdin ne yanglig' zormen.

Nuqtayi og'zing g'amidin tortibon jadvaldek oh,
Ashk selin oqizib sargashta chun pargormen.

Do'stlar, ko'nglum hadisin demangiz tengri uchun,
Kim men ul devonayi sargashtadin bezormen.

Ko'nglagindinkim, topar jon dam-badam Yusuf isi,
Ey Azizim, men ham ul ko'nglak aro bir tormen.

Bir quyosh hajrinda tundek ro'zgorim tiyradur,
Tong emas, gar tun kibi motam tutub yig'lormen.

Mayda afyun ezzil, ey mug'kim, bu eski dayr aro
Telbararmen g'uussadin gar bir nafas hushyormen.

Nevchun el dashnomu ta'nidin bo'lay oshuftahol,
Ey Navoiy, chun nekim derlar, yuz oncha bormen.

Dema, mehnat tog‘ining Farhodi sargardonimen,
Toza yuz ming dog‘ ila ul qullaning qaplonimen.

Lam’ayi ruxsoridin parvonadek kuysam, ne tong,
Menki yillar ul malohat sham’i sargardonimen.

Husnungga hayron esam, kelmas ulus hayronlig‘i,
Kimki hayroning emastur, men aning hayronimen.

Men o‘lar holatdavu jon qasdi aylar ul pari,
Odamiyliq ko‘rguzurkim, bir nafas mehmonimen.

Gar ko‘ngul buzdi meni, yor erdi bois, shukrkim,
Chug‘zning yo‘q, bir malohat ganjining vayronimen.

Dayr piri tutsa may, no‘sh etsam ermas aybkim,
Zahr agar ich derkim, aning bandayi farmonimen.

Telbalikdin aql sorı istamish zohid meni,
Ey Navoiy, muncha nodon bilmas erdim oni men.

* * *

Ichimdagı yoshurun g'amki, ayta olmasmen,
Bir o't solur manga har damki, ayta olmasmen.

G'amiki, o'lsam emas ayta olmog'i mumkin,
Agar-chi o'lturur ul hamki, ayta olmasmen.

Desamki, dardini dey, ishq ilgi bo'g'zumni
Tutar aning kibi mahkamki, ayta olmasmen.

Ne nukta ishqidin aytay desam, meni ul sho'x
Qilur aning kibi mulzamki, ayta olmasmen.

G'aming nihon meni o'lturdi zulm tiyg'i bila,
Erur bugun manga motamki, ayta olmasmen.

Ketur piyolaki, ishq sIRRINI hakimi azal
Aningdek ayladi mubhamki, ayta olmasmen.

Navoiy aytsun o'z dardiniki, dard meni
Qilibtur ul sifat abkamki, ayta olmasmen.

Yo rab, ul yuzni dame ko'zumga pinhon aylama,
Yo ko'zumni ondin o'zga yuzga hayron aylama.

Chehrasig'a mezbon o'lsun ko'zum, ul chehrani
Ko'zlarim uyidin o'zga uyga mehmon aylama.

Ochmayin zulfin, parishon ko'ngluma chekturma oh,
Yetmayin ohim yeli, zulfin parishon aylama.

Jonima la'lidin o'zga la'ldin berma hayot,
La'lig'a jonimdin o'zga jonne qurbon aylama.

Boshima ko'yidin o'zga ko'yni qilma vatan,
Ko'yida boshimdin o'zga boshni g'alton aylama.

Ey ko'ngul, davr ahlidin ming yilchiliq yo'l go'sha tut,
Yo alardin yetsa yuz ming g'ussa, afg'on aylama.

Istasang, ey gul, Navoiydek xushilhon bulbule,
G'unchadek ko'nglin malomat xoridin qon aylama.

* * *

Qil uchi ko'rmay og'zingdin nishona,
Anga oshiq bo'lubmen g'oyibona.

Xating bosh chekkali xoling ko'runmas,
Ko'kardi chun ekin, gum bo'ldi dona.

Bahona qilmay el qonin to'karsen,
Manga yetgach, qilursen bir bahona.

Bulut ermaski, gardun yuz yoshurmish,
Ki tortar shu'layi ohim zabona.

Bu javlonkim qilursen, vah, zamone
Inon chekkilki, qo'zg'aldi zamona.

Fano ahl so'zin ko'p ayla mazkur,
Ki uyqu daf etar ushbu fasona.

O'tar yoring, Navoiy, arz qilkim,
Qadam qo'ysang yaqindur bandaxona.

Yana ne o't edikim, tushti xonumonimg'a,
Yana ne shu'la edikim, tutashti jonimg'a.

Yana ne barq edikim, tushgach o'rtadi xasdek
Bir o't sharorasidin jismi notavonimg'a.

Yana ne novaki mujgon ediki, qatlim uchun
Tikildi ko'ngluma, ya'niki kirdi qonimg'a.

Yana ichimga magar ishq soldi o'tki, chiqar
Shararlari qotilib oh ila fig'onimg'a.

Balo o'ti yonadur to'sh-to'shimdin, ey nosih,
Eshit nasihat-u zinhor kelma yonimg'a.

Sarig' yuzumni qizil qilmadi visol mayi,
Bu gulshan ichra bahor o'ljadi xazonimg'a.

Navoiy itti qo'yub yodgor xasta ko'ngul
Dediki, yetkurung albatta dilsitonimg'a.

* * *

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo.

Yuzung ziyyosidin ar subh ayni ichra bayoz,
Soching qarosidin ar shom boshida savdo.

Zuhuri husnung uchun aylabon mazohirni,
Bu ko'zgularda ani jilvagar qilib amdo.

Chu jilva ayladi ul husn aylabon oshiq,
Saloyn ishqin etib ofarinish ichra salo.

Biri qabul eta olmay oni magarkim, men
Qilib otimni zulum-u jahul birla ado.

Demayki men o'zi ma'shuq o'lub, o'zi oshiq,
Ki tig'i g'ayrat o'lub anga naqsh g'ayri zudo.

Navoiy o'ljadi tavhid guftugo' bila fahm,
Magarki aylagasesen tilni qat'u jonni fido.

Chu dard-u baloni jahong'a urdi salo,
Naxustroq meni bexonumong'a urdi salo.

Men oldim o'n ulushidin to'quz yorim ulushin,
Yarimki qoldi ani ins-u jong'a urdi salo.

Aning dog'i yarimin oldi ofarinish eli,
Yarimini yana bu notavong'a urdi salo.

Bu notavon ani ham jon bila qabul etti,
Chu qochtilar ani ham har qayong'a urdi salo.

Ko'ngul chu dard-u balo tolibi durur gardun,
Agar yetishti ming ofat ham ong'a urdi salo.

Fig'onki, elga tutub boda soqiyi davron,
Chu davr yetti manga, barcha qong'a urdi salo.

Navoiyo, senga har yaxshiliqki mumkindur,
Ki yor mehnat o'tin men yomong'a urdi salo.

Yor javlongahidin keldi sabo,
Paykarim tufrog‘ini qildi habo.

Yuz samandi ayog‘ig‘a qo‘yarim,
Misli kah bargidurur kahrabo.

Buki ko‘ksumni g‘aming qildi shigof,
Xil’atim ko‘nglagini qildi qabo.

Bo‘ldi bag‘rim yorasi uyla afin,
Ki shamimidin erur biymi vabo.

Boshima yog‘sa qilich ishqingda.
Bo‘limasun boshim agar qilsam ibo.

Vahki, jonim bila o‘ynar ul tifl,
Sho‘xluq lozimasi keldi sabo.

Necha pashminag‘a urdumki, erur –
Ey Navoiy, panahim oliy abo.

Yo Rab, o'lg'on chog'da jonioj jismi vayrondin judo,
Ul bo'lub mundin judo, sen bo'limg'il ondin judo.

Chun judo bo'lsam meni g'amnok yo'q-u boridin,
Ne g'amim sen bo'lmasang men zori hayrondin judo.

Naqdi jon chiqqanda imon gavharin ko'nglumga sol,
Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo.

Xonumondin oyirib qilg'anda tufroq ichra hibs,
Qilma lutfung men aloxon-u alomondin judo.

Hashr g'avg'osi aro osiylig'img'a rahm qil,
Lutf ila ilgim tutub qil ahli isyondin judo.

Garchi o'ldum kofiri ishq ahli islom ichra qot,
Ul zamонkim bo'lg'usi kofir musulmondin judo.

Elga maxlas istasang yetti tomug'ni ayla kul,
Anlabon bir sho'la bu ohi duraxshondin judo.

Jannat istab aylaganlarni ibodat qilmag'il,
Qavsar-u, to'bi-yu qasr-u, hur-u, rizvondin judo.

Barchadin ayru Navoiyg'a qilib vasling nasib,
Qilmag'il, yo Rab, oni mundin, muni ondin judo.

* * *

Xo'blarda mehr yo'q, chun mehr yo'q ul mohda,
Xayli tobidur qayu xil'atki bo'lg'ay shohda.

Hech kim yo'qturki yor ollida yo'qtur mansabi,
Bizga bemansablig' o'l mish mansab ul dargohda.

Shomi hijron charx-u naxs axtarlaridindur nishon,
Tiyra ko'nglum har sharar ko'rguzsa dudi ohda.

Ko'nglung istar bo'lsa yuz ming jonni etgaymen nisor,
Gar bu dilxoh itganin fahm etsam ul dilxohda.

Mujibi anduhdur afg'onim, nishot etmang tama,
Jonfizolig' kim ko'rbutur nolayi jonkohda.

Bilki, yo'qtur ko'nglida ishq-u muhabbatdin asar,
Kimki davron ichra bo'lsa ko'ngli mol-u johda.

Sham tavfiq o'lmayin ravshan qachon yo'l topqamen.
Kim erur ko'p zulmati hijron meni gumrohda.

Bor umidimkim, yetishgay oqibat ogohlig',
Gar yerim bo'lsa gahi bir xotiri ogohda.

Ey Navoiy, elga men xud qilmadim ishqimni fosh,
Turfa ko'rkim har taraf bu so'z emish afvohda.

Telba ko'nglum yorasi hadsiz tani uryon aro,
Uyladurkim, yer tutar devonayi vayron aro.

Buki la'ling nuqtasi har dam o'lukni turguzur,
Kirdi ruhulloh magar ul chashmayi hayvon aro.

Ayn yozilg'an kibidur la'l aro qilsang nazar,
Ko'zki hayratdin tikibmen ul labi xandon aro.

Qatra su ichra degaykim bargi gulning aksidur,
Qatra qonim rangini kim ko'rsa ul paykon aro.

Qomating yodida ko'nglum ichra har kesgan alif,
Rost bo'lmish ul alifdekkim yozilg'an jon aro.

Jon fidong o'lsun habibimkim, hamono bor edi,
Qasdi mahluqot aro inson-u sen inson aro.

Ey Navoiy, istasangkim o'lmagay el dardidin,
Dardi holingni dema nazm aylabon afg'on aro.

* * *

Ul pari paykarki hayron bo‘lmish ins-u jon anga,
Kimki hayroni emas, men telbamen hayron anga.

Ne ajab parvonadek kuysam yuzi shamig‘akim,
Ko‘p bo‘lubmen vasl umidi birla sargardon anga.

Toyiri hajring buzug‘ ko‘nglumnikim qilmish vatan,
Chug‘edekdurkim, nishiman keldi bu vayron anga.

Hajrida tah-tah ko‘ngul qon bog‘lag‘andindur nishon,
Nomayi shavqumki ko‘zdin tomdi tim-tim qon anga.

Tiyri boroni g‘aming ko‘nglumgakim yog‘di, erur
Har tarafdin barqi ofat lam‘ayi paykon anga.

Otashin gul chunki bulbul kuydurur yuz vajh ila,
Ne osig‘ faryod-u afg‘on birla ming doston anga.

Ey Navoiy, ko‘ngluma amr etma tarki ishqkim,
Ul samandardur, emas o‘t furqati imkon anga.

* * *

Hajrdin har nechakim bo'ldi ko'ngul zor menga,
Hech rahm etmadi ul sho'xi jafokor menga.

G'unchadekdurki ocharlar kuch ila barglarin,
Bo'lg'ali hajrida qonlig' ko'ngul afgor menga.

Otashin la'ldek axgar to'kadurlar har dam,
Base hajrida ikki diydayi xunbor menga.

Zulfidin shiddati kufrum erur ul xadg'achakim,
Subha toricha erur rishtayi zunnor menga.

Yaxshiroq ravza savodidin agar dast berur,
Ul quyosh ko'yida bir soyayi devor menga.

Chunki bu qubbayi xazro aro juz hodisa yo'q,
Ey ko'ngul, avlo erur kulbayi xammor menga.

Ey Navoiy, ne mayu, mutrib-u, ne husn-u, ne ishq,
Xonaqah tarki erur anglaki nochor menga.

* * *

Nechakim kuyar ishq aro jon menga,
Emas tarkini qilmoq imkon menga.

Agar bo'lsa yuz jon fido qilg'amen,
Nasib o'lg'udek bo'lsa jonon menga.

Necha bo'lsa ag'yor hamsuhbati,
Erur bazmini ko'rmak armon menga.

Agar rashkdin sa'b bo'lsa hayot,
Xud ul dam erur o'lmak oson menga.

Qilibdur guli otashin g'unchasi,
Ko'ngulni o'kush so'zi hijron menga.

Ne kom olg'amen, soqiyo bodadin,
Ki davron tutar dam-badam qon menga.

Navoiy, ketib xilvat et uynikim,
Bo'lur bu kecha yor mehmon menga.

Bo'lmayin husn ko'ngul topmadi ishq ichra tarab,
Anga haqdin talabi husndurur husn talab.

Dahr bo'stonida bir husn guli ochilmas,
Bulbuli ishq agar bo'lsa navosiz ne ajab.

Otashin yuzga yetib qayda ko'ngul o'rtangay,
Bo'lmasa zulfi kamandi anga bu ishta sabab.

Talxliq birla berurmu kishi shirin jonin,
Noz ila talxi hadis aylamasa shirin lab:

Bir quyosh mash'alidin jonima ur ishq o'ti,
Yo'q esa sham'i hayotimni o'churgil, yo rab.

Soqiyo, ishq o'ti gar yo'q may o'tin ravshan qil
Ki, kul o'lsun nafasi xor-u xas-u ranj-u taab.

Ko'rgach-o'q axtari husn o'lsa Navoiy tong yo'q
Kim, o'tub umr, tulu etti, bu farruh kavqab.

* * *

O'rtasa ishq meni so'rma sabab,
Kuysa xoshok yolindin ne ajab.

Choklik jon qolur o't-u su aro,
Chun may oluda bo'lur ul ikki lab.

Ayog'in tufrog'in o'psam basdur,
Bor ayog'ingni desam tarki adab.

Uyla dard-u g'amingga o'rgandim
Kim, unut bo'ldi menga aysh-u tarab.

Zulfida zor ko'ngul ranji ne tong,
Xastag'a ko'prak o'lur kecha taab.

Biz kim-u vasl murodi, hayhot!
Dardi noyoft erur bizga talab.

Jon topib zor Navoiy qo'pqay
Tufrog'i ustiga sursang markab.

Jahon arusi bila suhbat aylama rag'bat,
Nedinki, rag'bat ila tutmas el bila suhbat.

Ki bo'lsa rog'ibi suhbat ani sevar eldin,
Yuz ilda yetmas mingdin biriga ham navbat.

Ajab fusungar erurkim chu qildi sayd seni,
Qarin sog'indingu ul xud qilibdurur g'iybat.

Quyosh niginining ostida zahridin hal etar,
Kishiga mehr bila kim ezib berur sharbat.

Taloq ber onikim dahr aro musofirsen,
G'arib bir elga emas uylanur yeri g'urbat.

Agar ikkingiz arosinda voqe o'lmas bu'd,
Yaqinki maqsad aslig'a topmog'ung qurban.

Navoiy, uyla fano bo'l visol uchunki, senga
Chah joyi o'zgaki, o'zlukka qolmag'ay nisbat.

Yor vaslidin uzub erdim meni shaydo umid,
Shoh lutfi qo'ymadi shaydo ko'ngulni noumid.

O'rtar ezdri hajri navmid erkanimda, voykim,
Shavq o'ti kul qilg'udektur bo'lg'ali paydo umid.

Bir nazardin gar bo'lur jonim gahi osuda bas,
Mundin ortuq vaslidin yo'qtur menga qat'o umid.

Hayrat aylarlar mening holim ko'rub ahli junun,
Aqldin, vah, qayda tutg'aymen meni rasvo umid.

Yo'q ajab, gar odamiliqdin chiqib devonamen,
Chun menga bor ul pari paykar malaksiy whole umid.

Hajr navmid erkanimda ortar ummidimda shavq,
Vahki, yo navmidlig' aylar halokim, yo umid.

Ham jafo, ham javr umidim bordur, ham lutf-u mehr,
Har jihatdin yo'qturur and(in) menga illo umid.

Hajr dardig'a davo behudlug' ermish, soqiyo,
Bu balo ichra tutarmen sog'ari sahbo umid.

Ey Navoiy, g'arqi bahri rahmat o'lsam, ne ajab,
Menki ko'z daryosidin tuttum duri yakto umid.

Chekar un ko'nglum ursang tig'i bedod,
Ne tong su quyg'ach etmak sho'la faryod.

Ko'ngul sensiz topar g'am shodlig'din,
G'amming yetgach vale aylar ani shod.

Ne tong majnunlug'umkim, jilva aylar
Ko'zumga lahza-lahza bir parizod.

Ko'ngulni, soqiyo, maydin qilib xush,
Buzug'ni sayl ila aylarsen obod.

Meni shod aylagil bir jur'a birla
Ki, g'amdin jong'a yetti joni noshod.

Sanam ollida maydin bosh ko'tarmon,
Ki qildi dayr piri mundoq irshod.

Sening yoding bila o'ldi Navoiy,
Tirik bo'l, garchi ani qilmading yod.

Oshkoroyuz tugon garchi tani zorimda bor,
Onchayuz dog'i nihoni joni bemorimda bor.

Istading ko'nglumni aylay deb ilojin, ey tabib,
Menda yo'q ulkim tilarsen lek dildorimda bor.

Novaki g'amzangg'a paykon istasang, ey qoshi yo,
Kelki, andin benihoyat jismi afgorimda bor.

Yuz bo'g'un ermas so'ngaktin rishtayi jismim aro,
Iqli zulfungdin tugunlardurki bu torimda bor.

Javrlarkim, qildi ul kofir unutmaydur ko'ngul
Kim, hisobidin girihlardurki zunnorimda bor.

Hirqa-u sajjodani may rahni qilsam ne ajab
Kim, asar maxmurliqdin sho'x xummorimda bor.

Gar Navoiyni qilib rad, nazmin istar shukrkim,
Menda gar yo'qtur qabul, oshifta guftorimda bor.

Har necha kuysam ul oy mehrimni paydo aylamas,
Aylasa ham o'lsam oni oshkoro aylamas.

Ishvasidin iltifot ahvolima zohir bo'lur,
Zorlug' ko'rguzsam andog' ishva qat'o aylamas.

Jong'a bir o'lmakchadur har kimga parvo qilmog'i,
Yana yuz o'lmakchakim qatlimg'a parvo aylamas.

Sho'xlug'lar birla sabrim xirmanig'a o't solur,
Husn ila yolg'uz meni bedilni shaydo aylamas.

Qayda yuzlansam junun hangomasidur xalq aro,
Ul chu yetti ko'z uchi birla tamoshlo aylamas.

Aylamas to husn bir sendekni olam ofati,
Ishq bir mendikni ham olamda rasvo aylamas.

Men ayog'i tufrog'ig'a naqdi jon aylay nisor,
Ne ishimdurkim, qabul aylar ani, yo aylamas.

Naqdi islomim olib, bir jur'a tut, ey mug'bacha,
Bo'l ravonkim hech kofir bo'yla savdo aylamas.

Muddatidurkim, Navoiydur ayog'ing tufrog'i,
Poyibo'sung gar topar ortug' tamanno aylamas.

* * *

Hajrdin ko'zumga olamni qarong'u aylading,
Umrdin ko'z yumg'anim ul tunda uyqu aylading.

Jon-u ko'nglum muddate sargashtadur ko'yung aro,
Boshlarin aylandururg'a buyla jodu aylading.

Holima qolur taajjubdin el og'zi ochilib,
Yo'qsa ahvolim jahon ahlig'a kulgu aylading.

Ashk siy mobimudur hajringda, yo ko'z oqini
Hal qilib ko'z din ravon ul navkim su aylading.

Qoldi mahmizingdin oy yuzinda, ey chobuk, nishon,
Go'yiyo javlon kuni oni teping-u aylading.

Shohid davrong'a go'yo, ey tarab mashshotasi,
Bodani gulguna-u sog'arni ko'zgu aylading.

Eyki, aytursan zamon ahlig'a yo'q ermish vafo,
Oni ma'lum, ey Navoiy, bu zamonmu aylading.

Otashin ruxsora ochib xonumonim o'rtading,
Xonumonim xud ne bo'lg'ay jism-u jonim o'rtading.

Dema ne qildim, ne qildim jon-u ko'nglunni olib,
O'rtading, ey qotili nomehribonim, o'rtading.

Dilraboliq birla chun yoqting jamolin sho'lasin,
Xasta ko'nglum olg'ach-o'q, ey dilistonim, o'rtading.

To'lg'anib kuysam ajab yo'q o'tqa tushgan sho'ladek
Chun firoq o'tida jismi notavonim o'rtading.

O'tqa solding sabr-u, aql-u, jon-u, ko'nglum barchasin
Yo'qu borim kuydurub yaxshi yomonim o'rtading.

Sog'aring o'ti jahon-u jondin ortuq, soqiyo
Lekin ul o't birla-o'q jon-u jahonim o'rtading.

To Navoiydek bel-u og'zing xayoli birla men
Ushbu yo'q savdoda paydo-yu nihonim o'rtading.

* * *

Gulshaningdin yeldek, ey zebo nihol,
Men yomon bordim, vale sen yaxshi qol.

Menmen-u bekaslig-u ayyomi hajr
Sen bo'l-u ahbob-u davroni visol.

So'rma holimni sabodin gah-gahi,
Ko'nglunga o'lturmasun gardi malol.

Gar buzug' ko'nghlumni mardud aylading,
Bok emastur o'zgalarning ko'nglin ol.

Sig'mayin ko'yungda gar qovdung meni,
Osru keng sahrodurur dashti xayol.

Olam ahlida vafo mavjud emas,
Har nekim yo'qtur, erur topmoq mahol.

Ey Navoiy, xushturur ozodaliq,
Qayd aro xushluqqa yo'qtur ehtimol.

* * *

Agar oshiq etsa visol orzu,
Ayon etmish o'lg'ay mahol orzu.

Anga baski qilg'ay agar bersa dast,
Yiroqtin ko'rarg'a jamol orzu.

Ko'rub og'zim istarmen ul chehrani
Suvsiz aylagandek zilol orzu.

Suvg'a, yo'qsa ko'zguga solg'il nazar,
Ki etsang o'zungga misol orzu.

Ham oshifta, ham tiyradur ho'lg'ali
Zamirimg'a ul zulf-u xol orzu.

Quyoshdek manozil tay etmak kerak,
Ne rahki qilg'ali kamol orzu.

Navoiy tilar iyd shomi qoshing,
Ulus aylagandek hilol orzu.

Soching rangi anbarmudur mushki chinmu,
Labing ta'mi shakarmudur angabinmu?

Soching bo'lmadi kufr eligamu zunnor,
Bo'yun tavqig'a qo'yjadi ahli dinmu?

Kuyarga ko'ngul la'ling ermasmu o'tluq,
Gulungni qadah qilmamish otashinmu?

Ko'ngul ganjiga qufl emasmu boshog'ing,
Yangi dog' emas anda naqshi niginmu?

Deding mast-u oshiqni qatl aylamishmen,
Degil qoldi bir shayxi xilvatnishinmu?

Meni bog' gulgashtig'a chekma dehqon,
Vafolig', degil, gulmudur yo saminmu?

Navoiyning ko'ngliga kor qilmas,
Fig'on tortma yo'qsa ohi xazinmu?

Xating savodig'a sun ilki yo'ndi chun xoma,
Ham ul raqam qildi meni siyah noma.

Yig'ildi, vahki, xating xayli davrasida-yu bas,
Necha qizitti jamoling quyoshi hangoma.

Ko'zung xayoli ko'ngul mahzanin tasarruf etib,
Magarki xifzi uchun bosti muhri bodoma.

Ko'ngul xarobasida soldi tarxi mehring ishq,
Ki uy mavolig' o'lur chun bo'lur davo shoma.

Mening kibi kechar el ko'ngliga maydin nokom,
Birovki, sendek erur yori mast-u xud koma.

Maol ilmida mendin ham erdi johilroq,
Qayuki tutti o'zin olam ichra alloma.

Navoiy o'lsa kerak piri dayr bazmida xos,
Ne desa desun ani va'z ichindagi oma.

RUBOIYLAR

Jonimdag'i «jim» ikki dolingg'a fido,
Andin so'ng «alif» toza niholingga fido,
«Nun»i dag'i anbarin hilolingga fido,
Qolg'an ikki nuqta ikki xolingga fido.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.

Yuz mehnat-u g'am ko'ngluma yetkurdi firoq,
Jonimg'a balovu dard o'qin urdi firoq.
Jismimni fano o'tig'a kuydurdi firoq,
Chun kuydi, kulini ko'kkasovurdi firoq.

Ko'nglumni g'am-u dard ila qon ayladi ishq,
Ko'z yo'lidin ul qonni ravon ayladi ishq.
Har qatrani bilmadim qayon ayladi ishq,
Bedil ekanim buyla ayon ayladi ishq.

Zohid, senga hur-u, menga jonona kerak,
Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,
Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak.

O'lsam yasamang munda mazorimni mening,
Yuklab eliting jismi figorimni mening.
O'tru chiqarib ahli diyorimni mening,
Ko'yida qo'yung tani nizorimni mening.

Ey ulki, zamona ahlidin ayrılding,
Ishq ahli **tariqi** xo'b ekanni bilding.
Xush qilding, alar tavrini-yu qotilding,
Rahmat sanga, yaxshi aylading, xush qilding.

Sadbarg, binafsha, yo'qsa nargis, yo gul,
Ichmak bo'lmas bular havosi bila mul.
To hajr yelidin o'ldi oshufta dimog',
Yuz noxuna ko'z ichravu yuz pora ko'ngul.

G'urbatqa tushub zaif-u bemor o'ldum,
Dard-u g'am-u mehnat ilgida zor o'ldum.
Sartosar ajal toshidin afgor o'ldum,
Sensiz ne balolarg'a giriftor o'ldum.

* * *

Ey bodi sabo, agar havo aylagasesen,
Gulshang'a yetarni muddao aylagasesen.
Sarv ollida yer o'pub duo aylagasesen,
Gul qoshida quillug'um ado aylagasesen.

* * *

Menmenmu visol umididin shod o'lg'an,
Bir-bir g'am-u anduhdin ozod o'lg'an.
Oz-ozg'ina bergen soyi gul atri nasim,
Bulbuldek ishim nolavu faryod o'lg'an.

* * *

Jonimg'a qilur javr-u jafo yor asru
Kim, yor ichida javr-u jafo yor asru.
Bo'ldum chekibon javr-u jafo zor asru,
Men javrkash-u yor jafokor asru.

* * *

Hajring sipahi zer-u zabar qildi meni,
G'am kishvari ichra darbadar qildi meni.
Andinki batar emas, batar qildi meni,
Jon olg'ucha ne deyki, nelar qildi meni.

* * *

Yo rabki, inoyatingni yor ayla manga,
Yo'qluqqa hidoyatingni bor ayla manga,
Har kahfi kifoyatingni dor ayla manga,
Har durni inoyating nisor ayla manga.

* * *

Kim ko'rdi ekin jahonda oyo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq.
Yuz yilda agar bir o'lsa paydo xushiug,
Omodadurur yonida yuz noxushluq.

* * *

Chun lola to'kuldi, lolagun jom ichma,
Gul fasli tugandi mayi gulfom ichma.
Javzoda chu tutti mehr orom ichma,
Ko'p bo'lsa zarurat o'lmayin shom ichma.

* * *

Ham jismingga za'f bo'lsa jonim sadqa,
Ham joningga jismi notavonim sadqa.
Sarvingg'a shikast o'lsa ravonim sadqa,
Yo'q-yo'qliki, sanga jon-u jahonim sadqa.

* * *

Yo koshifi asrori nihon bo'lsa kishi,
Halloli rumuzi osmon bo'lsa kishi.
Yo oshiqi zori notavon bo'lsa kishi,
Devonavu rasvoysi jahon bo'lsa kishi.

* * *

Furqat sahari g'amg'a yo'liqturdi meni,
Hijron kuni yuz balog'a topshurdi meni.
G'am shomi o'lum holig'a yetkurdi meni,
Tong otqucha uyqusizlig' o'lturdi meni.

* * *

Bu qosid ishim oh-u fig'on ayladilo,
Bu ruq'a tanimni notavon ayladilo.
Bu sa'b xabar ichimni qon ayladilo,
Bu qonlig' ichim haloki jon ayladilo.

* * *

Vasling bo'lubon jong'a tuyassar, yo rab,
Chehrang qilibon ko'zni munawvar, yo rab,
Nutqung sochibon bazmida gavhar, yo rab,
Yo rabki, ijobat aylagil har «yo rab».

* * *

Nomangki, tirikligimdin uldur matlub
Ochib o'qug'ach bir necha lafzi marg'ub,
Ko'p to'lg'anib ashk ichra o'zumdin bordim,
Ul navki, su ichiga tushkay maktub.

* * *

Nomangki, erur boisi iqbol-u tarab,
Yetkursa tarab meni hazing'a ne ajab.
Yolg'uz mendin ketarmadi ranj-u taab
Kim, bo'ldi base xalq hayotig'a sabab.

* * *

Bir aybg'a garchi xalq qilg'ay mansub,
Faqr ahlidin iztirob emastur mahsub.
Sidq ersa xud etmak kerak o'z fe'lini xo'b
Kizb ersa, malomat dag'i bordur matlub.

Su ko'zgusini bog' aro aylarda shitob,
Siymob qilur erdi taharruk bila tob.
Day qildi bu simobni andoq ko'zgu
Kim ko'zgu aning qoshida bo'lg'ay siymob.

Yo'q bodayi vasl, obi hayvon ul emish,
Ahhbob muloqoti dema, jon ul emish.
Gardun g'am-u ranj suvratin naqsh etsa,
Jon chehrasi atrofig'a hijron ul emish.

Yillar tutubon shayx maqolotig'a go'sh,
Ne ko'ngluma zavq yetti, ne jonima jo'sh.
Jonimg'a navo soldi-yu ko'nglumga xurush,
Bir jur'a bila mug'bachayi bodafurush.

Olam bor emish, Navoiyo, sho'rangiz,
Olamdag'i el boshtin-ayog' rangomiz.
Ishq istar emish seni adam Misri sari,
Borg'ilki, erur el tilagan yerda aziz.

Ahhbob dengizki, xonumondin tama uz,
Ne xon-u ne mon, kavn-u makondin tama uz.
Ne kavn-u makon, jon-u jahondin tama uz,
Lekin demangiz muniki, andin tama uz.

* * *

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki, sevmak andin ortuq bo'lmas,
Andin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

* * *

La'lingni qilib nuktasaro, ey qorako'z,
Ishq ahli hayotig'a yaro, ey qorako'z.
Chekma yana surma ko'z aro, ey qorako'z,
El qonig'a qilma ko'z qaro, ey qorako'z.

* * *

Gar oshiq esang zeb-u takallufni unut,
Yaxshi-yu yomon ishda taxallufni unut.
O'tkan gar erur yomon taassufni unut,
Kelgan gar erur yaxshi tasarrufni unut.

* * *

Bo'ldi mening o'lmagimga savdo bois,
Savdog'a havoyi jomi sahbo bois.
Sahbog'a dag'i dayr-u chalipo bois,
Bu barchag'a ul dilbari tarso bois.

* * *

Qo'rqtma meni tamug'din, ey zohidi yax,
Jannat manga bo'lg'usi debon urma zanax
Kim, do'zax aning yodi bila jannat erur,
Jannat bori sening biladur do'zax.

Ruxsori uza xollarin ul dilband,
Ochti chu meni ko'rdi base hojatmand.
Ayshimg'a yomon ko'z etmagan emdi gazand,
Xossaki, ul-o'q bo'lubtur o't uzra sipand.

Yoshimg'a bag'ir qoni chu erdi monand,
Ko'z asradi yoshdek bo'lub andin xursand.
Turmadi ko'zumda yetkach ul sarvi baland,
Bo'lmas kishi farzandi kishiga farzand.

Ko'nglum saydi uzub ulustin payvand,
Sargashtasifatlig' bila erdi xursand.
Qullobi muhabbatting yana soldi kamand
Saydeki, uzub edi rasan, ayladi band.

Ey sharbati la'ling obi hayvondin alaz,
Hayvon suyini qo'yki, chuchuk jondin alaz.
Ne jondin alaz, ne obi hayvondin alaz
Kim, harneki yo'q, andin alaz, andin alaz.

Har zulf hamig'a qilma vobasta meni,
Har ko'z havasidin etmagil xasta meni.
Har qosh tamayig'a solma payvasta meni,
Yo rab, borisidin ayla vorasta meni.

* * *

Munglug' boshim ostidag'i toshimnimu dey?
Tosh ustidagi g'arib boshimnimu dey?
Hasrat suyidin ko'zimda yoshimnimu dey?
O'lmakdin sa'broq maoshimnimu dey?

* * *

Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,
Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.
Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog'ing yaxshi.

* * *

Nomangki, menga mujdayi jone erdi,
Hijron g'amidin xatti amone erdi.
Zulmatqa savodi gar nishone erdi,
Mazmun anga obi zindagoniy erdi.

* * *

Kim istasa sultanat, saxodur anga shart,
Har va'daki aylasa, vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.

* * *

Bir gul g'amidin dedim qo'yay bag'rima dog',
Borgaymu debon atri dimog'img'a farog',
Borgin chu mulavvas ayladi bum ila zog',
Emdi yani islamakka yuz hayf dimog'.

* * *

Chun xanjari hajring manga qat etti hayot,
Bori g'am-u darding o'qini tinmayin ot,
Kim oncha qovursun par o'lub butsa qanot,
Toyir bo'lubon yetgamen oxir sanga bot.

* * *

Bo'ldi mening o'limagimga savdo bois,
Savdog'a havoyi jomi sahbo bois,
Sahbog'a dog'i dayr-u chalipo bois,
Bu barchag'a ul dilbari tarso bois.

* * *

Ko'nglumni olibdur ul shahi sabzdavoj,
Kim g'amza bila olur mamolikdin boj.
Boshi uzra mamlakat xiroji bir toj,
Toji uza gavhari mamolikka xiroj.

* * *

Ruxsori uza xollarin ul dilband
Ochti chu meni ko'rди base hojatmand.
Ayshimg'a yamon ko'z etmagay emdi gazand,
Xossaki, ul-o'q bo'lubtur o't uzra sipand.

* * *

Budur tilagimki, ulki ma'budung erur,
Tutkay seni ulyonki, sening sudung erur.
Ko'nglungga yeturgay ulcha behbudung erur,
Ilgingga keturgay ulcha maqsudung erur.

* * *

Gul zikrin eshiturmen-u yo'q guldin asar,
Bu bog' eshidigin istaram oncha guzar,
Kim topmasa gul jamolidin bahra nazar,
Bori isidin yetsa dimog'img'a xabar.

* * *

Ko'zum uchadur, magarki yorim keladur,
Es har dam ozar, magar nigorim keladur.
Yo boidiyayi firoq sayrida qilib
Yuz marhala qat shahsuvorim keladur.

* * *

Gar oshiq esang, mehr-u vafo qilma havas,
Dard istavu daf'ig'a davo qilma havas,
Hijron-u visol mutlaqo qilma havas,
Dildoringdin g'ayri rizo qilma havas.

* * *

Ul durri saminki, bor edi ko'zuma yosh,
Aylarda ajal anga jafo rasmini fosh.
G'am tirnog'idin qilib qarog'imni xarosh,
Yoshurg'ay edim oni ko'zum uyida kosh.

* * *

Bir gul g'amidin dedim qo'yay bag'rima dog',
Bergaymu debon atri dimog'img'a farog',
Bargin chu mulavvas ayladi bum ila zog',
Emdi oni islamoqqa yuz hayf dimog'.

* * *

Nomang yetibon topti ko'ngul izzu sharaf,
Har lafzi bo'lub murod durrig'a sadaf.
Har satri alam cherikining daf'i uchun
Iqbol sipohidin chekibon bir saf.

* * *

Yo'q dahrda bir besar-u somon mendek,
O'z holig'a sargashtavu hayron mendek,
G'am ko'yida xonumoni vayron mendek,
Ya'ni, aloxon-u alomon mendek.

* * *

Turmay meni zor-u notavon birla ko'ngul,
Ulfat tutmish ul oston birla ko'ngul.
Yoreki manga jon edi ham azm etti,
Men mundavu xizmatingda jon birla ko'ngul.

* * *

Ey, joni habib-u ko'ngli ahbobg'a lol,
Men ham qildim jon-u ko'ngulni irsol.
Ko'nglumga ber ahbob bila jomi visol,
Jonimni habib ayog'i tufrog'ig'a sol.

* * *

Mug' dayri sori bukun tamanno qildim,
Ul mug'bacha husnini tamoshlo qildim,
Din naqdini kufri birla savdo qildim,
Kim qildi bu ishkim, meni rasvo qildim?

* * *

Yoshung'on emish qaro bulutg'a mohim,
Gardunni sovurmog'lig' erur dilxohim.
Kirmish qaro tufroqqa quyoshdek shohim,
Nevchun qaro qilmasun quyoshni ohim?!

* * *

Johilki, hasad bo'lg'ay aning jahlig'a zam,
Nur el ko'zidin anglasa o'z ko'zida kam.
Ko'zlamni olishmoqqa chekib tig'i sitam,
El ko'zini ham o'yg'a-yu o'z ko'zini ham.

* * *

Bahr-u kemadin ko'ngulda ko'pdur alamim,
Kim sekrimayin qadam, yugurmay qalamim
Maqsuddin oncha soldi bir damda yiroq,
Kim yuz yil oni tay qila olmas qadamim.

* * *

Gul bordi esa, chaman muattar bo'lsun,
Sham o'chti esa, qamar munavvar bo'lsun.
Shahzodag'a gar ravza muyassar bo'ldi,
Sultong'a jahon mulki muyassar bo'lsun.

* * *

Jonim aro o't la'li suxandoning uchun,
Yuzum uza kavkab mahi toboning uchun,
Ko'ksumda alif sarvi xiromoning uchun,
So'zlab, yuz ochib kel bu taraf joning uchun.

* * *

Sen borg‘ali ort mish ko‘ngul zorlig‘i,
Oh o‘qlaridin har nafas afgorlig‘i.
Bilmon, unutulg‘onmu ekandur manga hajr,
Yo ko‘prak erur bu qatla dushvorlig‘i?

* * *

Til so‘z bila to qizitti hangomamni,
Bir ham tiya olmadim bu xudkomamni.
Har necha itikrak ayladim xomamni,
Ul xoma qaroroq ayladi nomamni.

* * *

Ko‘k po‘yavu sayr ila talabgor sanga,
Kun sorg‘oribon ishqda bemor sanga.
Oy dog‘ ila qulluq aylab izhor sanga,
Tun anjumi naqididin xaridor sanga.

* * *

Kim bo‘lsa bu motamkadadek olam aro,
Sayr aylasa g‘amsirishtlik odam aro,
Gar odam erur bo‘lsa keraktur g‘am aro,
Olamda esa, bo‘lsa kerak motam aro.

* * *

Ishqingda necha zor bo‘lay furqat aro,
Yetsam xush erur bazminga bir ishrat aro.
Ko‘z ikki yuzungdin olmasam suhbat aro,
Ikki taboningdin uylakim xilvat aro.

* * *

Ey ulki, so'zung tushti habib ollida xo'p,
Medin yo'lig'a boshing qo'yub, tufrog'in o'p
Ahbobj'a ham birin-birin xidmat etib,
Arz ayla, niyoz ila duo ko'ptin-ko'p.

* * *

Gardun uza bazm uchun maqom ayladi tut,
Ul bazmda xurshidni jom ayladi tut.
Ul jom ila ishratni mudom ayladi tut,
Oxir dami yer quyi xirom ayladi tut.

* * *

Budur tilagimki ulki, ma'budung erur,
Tutqay seni ul yonki, sening sudung erur.
Ko'nglungga yeturgay ulcha behbudung erur,
Ilgingga keturgay ulcha maqsudung erur.

* * *

Gul zikrin eshiturmen-u yo'q guldin asar,
Bu bog' eshidigin istaram oncha guzar
Kim, topmasa gul jamolidin bahra nazar,
Bore isidin yetsa dimog'img'a xabar.

* * *

Har lahza ko'ngul g'ammingda mahzun bo'ladur,
Mahzunlug'i lahza-lahza afzun bo'ladur.
Savdo anga yuz onchaki, Majnun bo'ladur,
Yuz muncha desam ham ne ajab chun bo'ladur.

* * *

Gar oshiq esang, mehr-u vafo qilma havas,
Dard istavu daf'ig'a davo qilma havas,
Hijron-u visol mutlaqo qilma havas,
Dildoringdin g'ayri rizo qilma havas.

* * *

Bu davrda yo'q sen kebi xushxon hofiz,
Huffoz aro sarhalqayı davron hofiz.
Qur'ong'a sen o'lg'an kebi yakson hofiz,
Bo'lsun sanga barcha ishda Qur'on hofiz.

* * *

Ollimda tabibi chorasozim ham yo'q,
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo'q.
Tegramda anisi jongudozim ham yo'q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo'q.

* * *

Ko'ksumni jafo tiyg'i bila yora qiling,
Ko'nglumni chiqaring dag'i yuz pora qiling.
Har porasini bir sari ovora qiling,
Ishqim o'tig'a bu nav ila chora qiling.

* * *

Ey joni habib-u ko'ngli ahbobqa lol,
Men ham qildim jon-u ko'ngulni irsol,
Ko'nglumga ber ahbob bila jomi visol,
Jonimni habib oyog'i tufrog'ig'a sol.

Jonim aro o't la'li suxandoning uchun,
Yuzum uza kavkab mahi toboning uchun.
Ko'ksumda alif sarvi xiromoning uchun,
So'zlab, yuz ochib kel bu taraf joning uchun.

Xushtur bo'lsak, ikkovla hamdam sen-u men,
Bir-birga desak, yetushsa har g'am sen-u men.
Bo'lsaq bor esak haramg'a mahram sen-u men,
Mug' dayri aro bo'lsa vatan ham sen-u men.

Sen borg'ali ort mish ko'ngul zorlig'i,
Oh o'qlaridin har nafas afgorlig'i.
Bilman unutulg'anmu ekandur manga hajr,
Yo ko'prak erur bu qatla dushvorlig'i.

TUYUQLAR

Yo rab, ul shahd-u shakar, yo labdurur,
Yo magar shahd-u shakar yolabdurur.
Jonima payvasta novak otqali
G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur.

* * *

Javr o'qin jonimg'a soqiy yozmadi,
Vasl jomidin xumorim yozmadi.
Kilki qudrat sabz xatlar ishqidin
O'zga ish ollimg'a go'yo yozmadi.

* * *

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.
Men vafosi va'dasidin shodmen,
Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur.

* * *

Charx tortib xanjari hijron bu tun,
Qo'ymadni bir zarra bag'rimni butun.
Tunga borib bizni behol aylading,
Ne baloliq yor emish, yo rab, bu Tun?!

* * *

Yo qoshingdin necha bir o'q ko'z tutay,
Otki, o'trusig'a oning ko'z tutay.
Necha ko'rgach o'zga mahvashlar qoshin,
Yangi oy ko'rgan kishidek ko'z tutay.

* * *

Ul pari ishqida bu devonani,
Eyki istarsen, kelib gulkanda ko'r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko'ngul, nazzora qil, gul xanda ko'r.

* * *

O'tkali ul sarvi gul ruxsoridin,
Yo'q xabar ul sarvi gul ruxsoridin.
Hajridin bog' ichra berur yodima
Qomatidin sarv-u gul ruxsoridin.

* * *

Yog'di javrung o'qi hajring toshidek,
Qildi qon ko'nglum ichin ham toshidek.
Sochqali mohim ayog'ig'a sipehr,
Ko'z yoshimning la'l-u durrin toshidek.

* * *

Naqsh tushmish ko'zda ul yoshim mening,
Uylakim, bormas buyon yoshim mening.
Komim o'lmoqdur habibimdin yiroq,
Gar xud o'lsun Xizrcha yoshim mening.

* * *

Bovujud ul yuz erur gulgunasiz,
Kim ko'rinur ollida gul gunasiz
Yuz qizilliq yo'qturur, ey ahli zuhd,
Toki munkirsiz mayi gulguna siz.

* * *

Tiyg'i ishqing yorasidur butmagon,
Dardini har kimga oytib butmagon,
Hajr sahrosidur ohim o'tidin
Anda gul yoxud giyohe butmagon.

* * *

Vah, qachong'a tegru ishqing kojidin
Ko'zuma har lahza o't chaqilg'usi.
Basdurur ko'nglumda ishqing, yoqma o't,
Kim haroratul ham o'tcha qilg'usi.

* * *

Necha dedim ul sanamg'a bormag'in,
Qilmadi ul tark oxir bormag'in.
Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab bormag'in.

QIT'ALAR

Pardani ruxsorasidan olmangiz,
Nohaq o'lturdi meni shul olmangiz;

Gar anoristong'a sunsa ilgini,
Aytur: – Ul tursun, amonat, olmangiz!

* * *

Zamonda husn ellga jon fido qilib, ne nav
Vafoni men kebi blr benavo tama tutqay.

Zamona ahlida yo'qtur vafo – ne yetkay anga
Ki, kimsa xo'blarin vafo tama tutqay.

* * *

Har kishikim topsa davron ichra johu e'tibor
Kim, aning zotida bedod-u sitam bo'lg'ay qilig'.

Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa
Kim, yomonlig' qilmasa, qilg'ancha bordur yaxshilig'.

G'azalda uch kishi tavridur ul nav
Kim, andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.

Biri mu'jiz bayonlig' sohiri hind
Ki, ishq ahlini o'rtar so'z-u holi.

Biri Iso nafaslik rindi Sheroz,
Fano dayrida mast-u louboli.

Biri qudsi asarlik orifi Jom
Ki, jomi Jamdurur sing'an safoli.

Navoiy nazmig'a boqsang, emastur,
Bu uchning holidin har bayti xoli.

Hamono ko'zgudurkim, aks solmish,
Anga uch sho'x mahvashning jamoli.

Olmani otti nigorim, «ol», – dedi
«Olma birla bu ko'ngilni ol», – dedi.

So'rsam ersa olamsini rangini
«Olma rangin ne so'rursan, ol», – dedi.

Erur ahli hunar qoshinda hunar
Ayb yopmoq, dog'i hunar topmoq.

Hunarin elning oshkor etmak,
Yo‘q esa bari aybini yopmoq.

Og'zinga kirgan takallum rishtasin
chechma uzun
Kim, bu ishtin sarnigunluq yuzlanib,
nuqson kelur.

Ko'rkı, chun og'zig'a kirgan rishtasig'a berdi tul,
Ankabut ul rishtadin har dam nıqunsor osilur.

Pok rahravlar bila har kimki, bo'ldi muxtalit,
Shak emasturkim, natija topmas illo poklik.

Har necha bo'lsa arig'siz chun arig'lig' su aro
Xilt bo'ldi, mumkin ermas qolmoq' ul nopoklik.

* * *

Uyda ravnaqdurur, agar kishliga
Yaxshi hamxona bo'lsa hamzonu

Zeb ila turfa hargiz o'lmış uy,
Bo'lmasa anda turfa kadbonu.

Chun g'araz so'zdin erur ma'ni anga,
Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er.

So'zchi holin boqma, boq so'z holini
Ko'rma kim der ani, ko'rgilkim ne der.

Tuzlukka moyil o'iki, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkil o'lsa yo'qsa ming ollingda har zabon.

Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon.

Tah-tah yuragim qon edi bir-bir sitamidin,
Ko'p-ko'p keluri chog'ida kelsa edi oz-oz.

Kech-kech keluri vaqtida ham rozi o'llbmen
Bot-bot keluriga qiladur anda dog'i noz.

Gadolig' yaxshiroq ahli fanodin
Ki, olam ichra qilsang podsholig'.

Jahon ahlig'a, ko'rkim, shah ne aylar,
Jahon tarkini qilg'andin gadolig'.

Tirik chu oxir o'lar, bas, ukush g'am muhlik,
Chekib ajal madadig'a bu iztirob nedur.

Chu har kishiki tug'ar, o'lmayin yo'q imkoni,
Ne ishki bo'lmayin imkoni yo'q, shitob nedur.

Yuz tuman ming pora ko'nglum diqqati har necha bor,
Lekin ermastur ani jam aylamak mumkin bu kun.

Tog'ni qum aylamaklik sa'y ila bo'lg'ay, valek
Shishayi soat qumining rishtasi bo'lmas tugun.

Poklar chin-u chigil husni aro bo'lg'an ila,
Kimsa oloyish alar jonibig'a yo'l bermas.

Kim necha rang rayohin uza eskan birla,
Yel hariri, qolagay bo'lmag'i mumkin ermas.

Vujudung naf-yu mavjudungni bazl et,
Chu mavjud o'ldi bu ish, kominga yet.

Ki, faqr ichra nimakim yetkurur sud,
Erur nafi vujud-u bazli mavjud.

Yaxshi xotunlar safoyi zuhdidin
Olam ichra gar yorug'luq bo'lsa fosh.

Yo'q ajab, chunkim arab alfozida,
Istiloh ichra muannasdur quyosh.

Chu husni vaqtida ul oyg'a zor oshiq edim,
Ko'rub jahon eli yig'larlar erdi holimg'a,

Saqol chiqarg'onida tark qilmasam ishqin,
Ulus kular ham aning, ham menin saqolimg'a.

* * *

Ko'p oltun, kumush sari qo'l so'nmog'il
Ki, tutsang kafingni qora zang etar,

Ko'ngulda dog'i maylini asrama
Ki, ko'nglungni dog'i hamul rang etar.

* * *

Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.

Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.

* * *

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

* * *

Saxiy uldurki, nav'i bazl qilg'ay,
Agar xud sufra ichra bo'lsa noni.

Kim ul chodir ko'mochidek yetishgay
Gado uyiga ko'zlardin nihoniy.

Falakdek yo'qli, avval jilva bergay
Quyoshning qursidek olamg'a oni.

* * *

Kimki, o'zluk imoratin buzdi,
Bo'ldi naqdi fano aning muzdi.

Ul imoratni buzmayin solik
Bo'la olmas bu naqdg'a molik.

* * *

Ko'rsang, ey zohid, muqomirvash qalandarpeshae,
Bo'lma ko'p mashg'ulu dunyo shug'lidin qil ijtinob.

Dona o'ynab vajhin isor etsang, andin yaxshikim,
Evurub tasbih-u yormoq sudin etgaysen hisob.

Yuziga asli yamonning ko‘p ochma gulshani xulq,
Siyah gilemga albatta mehr aylama fosh.

Qi qilmadi gul isi birla toza ruh jual,
Quyosh charog‘ig‘a parvona bo‘lmadi xuffosh.

Chu dushman o‘ldi qadimiy, ziyonidin hazar et,
Agarchi nutqi ravonbaxshi jong‘a rohat erur.

Suv birla o‘t aro ziddiyat o‘ldi chun azaliy,
Agar hayot suyidurki, o‘tg‘a ofat erur.

Viqor gavhari-yu hilm ma’dani bo‘lako‘r,
Desangki, qilg‘ay itoat sanga gado bila shoh.

Bu sheva tog‘da zohirdururki, davrondin
Qachonki tafriqa yetti, ulusg‘a bo‘ldi panoh.

Poklar joni bo‘lur ozurda tazvir ashkidin,
Ko‘zgu ruxsori nechukkim zang tutqay nam bila.

Rostlar ko‘nglini aylar tiyra nodon yovadin,
Sham’ni ul navkim johil o‘churg‘ay dam bila.

* * *

Debon bergen kishi erdur, va lekin
Demay berganga erlik bil musallam.

Ne deb, ne bersa, bilgil oni xotun,
Debon bermasni xotundin dog'i kam.

* * *

Biravning xavfi ko'prak shah qoshinda,
Ki shahning bor anga ta'zimi ko'prak.

Erur shah majlisi o't, kimki o'tg'a
Yaqinroq bo'lsa, kuymak biymi ko'prak.

* * *

Qarilar xotiri nozikdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustoх.

Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda
Sinar oz mayl ko'rgandin quruq shox.

* * *

Ul turfa qush havosida ko'z to'kti durri ashk,
Jon yoydi rishtasin anga aylab havoyi qayd.

Lekin gar inju sochsa kishi dona o'mig'a,
Tovusni qachon qilur o'rgamchi domi sayd?

Kiyib samur ila kish, qilma asru ra'noliq,
Ipak libos ila tutma g'urur jomi to'lo.

Tiynning o'z tuki-o'q bo'ldi jonig'a ofat,
Farisaning paridin keldi o'z boshig'a balo.

Haq zotig'a biravki, xirad birla fikr etar,
Otin el ichra oqil-u farzona aylabon.

Miqdorini tengiz suyining istar anglamoq,
Lekin hubob jomini paymona aylabon.

Foniyi mutlaq o'lmayin solik,
Anga yo'qtur umidi maqsadi kull,

Qora tufroqg'a sinmagan qatra,
Andin imkoni yo'q ochilmoq gul.

Tavakkulni ulkim qo'yub, xotirig'a
Tushar shoh ollinda qulluq havosi,

Nasibi aning bir ayoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.

Biravkim, bo'lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga keraktur qazonning qarosi.

* * *

Kimki mahluq xizmatig‘a kamar
Chust etar, yaxshiroq ushalsa beli.

Qo‘l qovushturg‘ucha bu avlodur
Ki aning chlqsa egni, sinsa eli.

Chun xushomad demaknī boshlasa kosh
Kim, tutulsa dami, kesilsa tili.

* * *

Qulqoda asra garonmoya so‘zni-yu fikr et
Ki, dursiz o‘lsa, ne bo‘lg‘usidur sadaf holi.

So‘zungni dag‘i ko‘ngul ichra asrag‘ilkim, hayf
Kim, uyla durjni guhardin etkasen xoliy.

Bu durju ikki sadafni to‘la dur etkanga,
Zihye uluvvi guhar, balki gavhari oliy.

* * *

Biyik maqomig‘a ulkim tilar sabot, kerak
Ki, egrilikni qo‘yub, tuzluk aylasa qonun.

Tuz o‘lsa soyasida el tinib manor kebi,
Sipehr uyida turar qarnlar nechukki sutun.

Gar egridur yog‘ibon o‘q-u bog‘lanib bo‘yni,
Bo‘lur qabaq yig‘ochidek besh-o‘ncha kunda nigon.

* * *

Xiromon suda soyir bo‘lmoq-u uchmoq havo uzra
Ajab ermas, qachonkim rostravliq qilsa zoda.

Shior aylab bu ishni kema tiyri, ko‘rki, su uzra
Xirom aylab havog‘a bodbondin soldi sajjoda.

* * *

Saxiy uldurki, nav‘e bazl qilg‘ay,
Agar xud sufra ichra bo‘lsa noni.

Kim, ul chodir ko‘machidek yetishkay
Gado uyiga ko‘zlardin nihoniy,

Falakdek yo‘qli, avval jilva bergay
Quyoshning qursidek olamg‘a oni.

* * *

Debon bergen kishi erdur valekin
Demay berganga erlik bil musallam.
Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag‘i kam.

* * *

Hikmat ahli ollida sovuq sifat yo‘q kimsada
Subhi kozibdek mahalsiz aylagon kulgu kebi.

Lek mundin ko‘p sovuqdur ashk to‘kmak zo‘r ila
Day yelida qatra-qatra muz tomizg‘an su kebi.

FARDLAR

Ul parikim, ani demishmen yor,
Odamlig'din o'zga barchasi bor.

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo'q.

Yolg'on demakda tajriba avvalg'i subh bas,
Yolg'on nafas chu urdi, qorardi hamul nafas.

Istasangkim, ko'rmagaysen bevafolig', ey rafiq,
Qilma olam ahli birla oshnolig', ey rafiq.

Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu.

Kishi aybin yuziga qilma izhor,
Tahammul ayla o'z aybingg'a zinhor.

Bo'lg'anim aql-u havos-u umr-u jondin noumid,
Yaxshiroqkim, bo'lsam ul jon-u jahondin noumid.

Pok husn ahliki, xushtur zulmi ham, ehsoni ham,
Sa'b emish pok elga aning vasli ham, hijroni ham.

Forig' el davronda bori qondadur,
Kim bu davrondadurur darmondadur.

Tama etma, ko'p o'lsa el moli,
Ko'rmayin haq xazinasin xoli.

Nabi shar'ig'a topmoq istiqomat
Erur solikka mushkilrak karomat.

Yetar chu rizqing, agar xoradur, vagar yoqut,
O'zungga yuklama anduh tog'in, istab qut.

Takalluf erur tang'a farsudaliq,
Aning tarkidur jong'a osudaliq.

Muzavvir makri bo'ldi mu'jibi qayd,
Nechukkim tulki la'bi boisi sayd.

Qotiq el jismidin anburlar olmay naqd emas vosil
Ki tog'ni pora-pora qilmayin, la'l o'lmadi hosil.

Ko'k bahridin yana tama kom tutmayin,
Kim qatra suv tomizmas, el og'zin qurutmayin.

Tindurur boyu chig'oyni hokimi ravshan zamir,
Yorutur obod ila vayronani mehri munir.

Ne safo lofin urar hinduyi otashdoni,
Uy yorutmas ko'sov, o'n qatla yorutsang oni.

Mast mug' dayri riyyoti xilvatimdin yaxshiroq,
Yoshurun isyoni zohir toatimdin yaxshiroq.

* * *

Ranjkash bo'lkim, chu tortar chug'z vayron ichra ranj,
Ajdahodin biymi yo'q, ammo erur ummidi ganj.

* * *

El ichra, ey hasud, seni qildi haq zalil,
Kim nohaq elga zidsen-u haq molig'a baxil.

* * *

Xaliq o'lg'on saxiydin elga bo'ldi ikki baxshoyish,
Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish.

* * *

Avliyo poyasig'adur yetmak,
Topmasa shukr-u topsa bazl etmak.

* * *

Bazl hayvonvashlar ilgidin agar istar ko'ngul,
Uyladurkim orzu qilg'ay bug'-u shoxida gul.

* * *

Elni xor aylagan tama, bilgil,
Doimo azza man qana bilgil.

* * *

Ko'ngulga futur o'lmayin, roz ochilmas,
Sadaf gar butun bo'lsa, gavhar sochilmas.

* * *

Dunyovu uqbo ikkisi jam o'lmas, ey rafiq,
Kimki ikki kema uchini tutar, bo'lur g'ariq.

* * *

Ablah oni bilki, olamdin baqo qilg'ay tama,
Ahmaq ulkim, olam ahlidin vafo qilg'ay tama.

* * *

Jahon arusi uchun, eyki, asru tolpinding,
Qachon oning boshidin kechting, ul zamon tinding.

* * *

Ulki, sanga eldin erur aybgo',
Elga dog'i sendin erur aybjo'.

* * *

Qotiq ko'nglungdin oqtি xalq yoshi,
Ki yomg'ur boisidur yoda toshi.

* * *

Bu kun nasimi firoqi mening-sari esti,
Ki jonni yelga berib, vasl rishtasin kesti.

* * *

Qizil to'nung bila yuz xasta jong'a ofatsen,
Hadisi muxtasar aylay, qizil qiyomatsen.

* * *

Noz ila avval meni firifta qilding,
Emdiki, toptim firib – shifta qilding.

* * *

Chu sen yor-u jahon bir dushmanimdur,
Mening uchun jahon turg'uncha sen tur.

* * *

Manga emdi go'shayе mehrob ila toat yetar,
Ey ko'z, ul mehrobi qoshni ko'rmakim, ofat yetar,

* * *

Labingni so'zga to go'yo qilibsen,
Masiho mu'jizin ihyo qilibsen.

* * *

Andoq ko'rundi sabza arosinda lolalar,
Kim sabzxatlar ilgida gulgun piyolalar.

* * *

Ne xam qoshlardururkim, hasrati qaddimni yo qilmish,
Ne kirpiklar o'qikim, ro'zgorimni qaro qilmish.

* * *

Yor vaslin toptim-u mehr oshkora qilmadi,
Uylakim hijroni o'rtar chog'da parvo qilmadi.

* * *

Ne ajab, gar qilmasam gulrang bo'yin orzu,
Kim erur ondin dimog'im ichra o't, ko'zumda su.

* * *

Furqatingdin suvdurur ko'nglum, xayoling ul sudin
Uyla zohirdurki, zohirdur jamoling ko'zgudin.

* * *

Baloyidur buki, mendin hamisha yor judodur,
Dame bu dard-u balodin xalos emon, ne balodur?

* * *

Elga bo'l mish ruhparvar bog'-u ruhafzo bahor,
Yor hajridin manga, bilmon, xazondur yo bahor?

* * *

Deding, sog'indim, erur ashkdin yuzung gulgun,
Begim uzun yasha, sog'ing'aning sorig' oltun.

* * *

Netay elning bahorinkim, manga oshubi hijrondur,
Ko'zumga sarv o'qdur, ko'nglum ichra
g'uncha paykondur.

* * *

Istaram, sho'xe chiqib, jonimg'a bedod aylagay,
Sabr-u hush-u aql-u imonimni barbod aylagay.

Necha bo'lg'ay, ey ko'ngul, oshiqliq-u aftodaliq,
Necha kun ham xushturur forig'liq-u ozodaliq,

Ikki ko'zung-u labing g'amidin
Men xasta o'lub-o'lub tirildim.

O'q edi, ey tongki, otting jonima vuslat tuni,
Bu jihatdin yoruma dermen seni har subhidam.

Bel-u og'zidin, dedilarkim, degil afsonaye,
Boshladim filholkim: «Bir bor edi, bir yo'q edi».

Sel yo'lida fano dashtida mujgonim emas,
Ko'z alochuqlarining dud yegon o'qlaridurur.

Xush ul kurnarki, bir guldin ichimda xor-xor erdi,
Har aqshom itlari tirmog'idin ko'ksum figor erdi.

Agarchi ishq aro bo'ldi mubaddal kufr ila dinim,
Ne g'am, chun poklik rasmidurur bu ishta oyinim.

Ayog'ing tufrog'ig'a ko'zlarimdur shishayi soat
Ki, har soat biri ravshan bo'lurg'a tuzdilar navbat.

Za'fdin berahm yorimg'a yetib ermish gazand,
Shoyad etkay rahm dardimg'a, chu bo'lmish dardmand.

Bo'lmasang ollimda, yo ko'nglumda bo'l, yo jonda bo'l,
Manzilingdur bori, ko'nglung qanda istar – anda bo'l.

Tarki ishq ettim vale ko'nglum emastur muttafiq,
Gar haqimg'a yuz tuman bedod etar, uldur muhiq.

Chunki soldi ishq ko'yidin meni davron yiroq,
Tengdurur ollimda no'shi vasl ila neshi firoq.

Ishq avji quyoshin ko'rkim, tushta bo'lur g'orib,
Ham shomi erur muhlik, ham subhi erur kozib.

Agarchi ishq dardidin manga yuz ming uqubatdur,
Vale hamdardsizlig' andin ortug'roq suhbatdur.

Emastur, gar meni zoyi qilur hajr intiqomi, hayf
Va lekin zoyi o'lmoq shoh sa'yu ehtimomi hayf.

Kishikim, yorini har kun ko'rarga o'rganur ermish,
Chu bir kun ko'rmas ermish, benihoyat emganur ermish.

Bo'lmag'andur husn-u ishq oyinida, ey sarvi noz,
To abad bir yondin istig'novu bir yondin niyoz.

Ne bilgay hajmi gulshanda bulbul oshiyon aylab,
Birov bilgayki, mendek itti, tarki xonumon aylab.

Ohdinkim, har biri bir arsayi motamcha bor,
Uksudi umrum, nedinkim, har biri yuz damcha bor.

Bu kun yo'q kimsa mendek ishq dardi ani zor etkan,
Diyor-u mulkidin ovoralig'ni ixtiyor etkan.

Menki chektim yig'lamoqlar birla jonondin ilik,
Ashk selobi bila oxir yudum jondin ilik.

* * *

Ham meni ul toza naxli nozparvard o'lturur,
Ham bukim, yo'q dardini ayturg'a hamdard, o'lturur.

* * *

Andin o'zga garchi sham'i topmadi kulbamg'a yo'l,
Mendin o'zga barchaning sham'i shabistonidur ul.

* * *

Ul pariykim, ani demishmen yor,
Odamlig'din o'zga barchasi bor.

* * *

Chirmabon ilgiga umdo yog'lig' ul qoshi qora,
Men qora baxtim bila uryon tanimda yuz yara.

MUNDARIJA

Sharq adabiyotining noyob shoiri	3
G'azallar	8
Ruboiylar	115
Tuyuqlar	132
Qit'alar	135
Fardlar	147

Adabiy-badiiy nashr

ALISHER NAVOIY

**G'URBATDA G'ARIB SHODUMON
BO'LMAS EMISH**

*G'azallar, ruboilyar,
tuyuqlar, qit'alar, fardlar*

Muharrir
Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir
Nigora UMARQULOVA

Sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 04.01.2018-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1/32.

Garnitura «Bookman Old Style». Gazeta qog'ozи.
Bosma tobog'i 5,0. Shartli bosma tobog'i 8,4.
Adadi 10000 (II zavod 3000) nusxa. Buyurtma № 01.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida
tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:
Nashr bo'limi – 147-00-14; 129-09-71;
Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87;
faks – 273-00-14;
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



ALISHER NAVOIY

Alisher Navoiy she'riyatga g'oyat qiziqadi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rghanadi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid Kobuliy, Muhammad Ali G'aribiy yetuk shoir edilar. Shu boisdan ularning uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira uyuştirishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar. Alisher Navoiy 10 – 12 yoshlaridan she'r yoza hoshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste'dodidan hayratlangan mavlono Lutfiy, uning:

*Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur
harlahzayosh,*

*O'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon
bo'lg'ach quyosh.*

matlali g'azahini tinglab, «Agar
muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n
ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu
g'azalga almashtirardim...» degan.



www.book.uz
Onlayn kitob do'kon'i

ISBN 978-9943-20-385-3

9 789943 203853